

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM
VAZIRLIGI**

QARSHI MUHANDISLIK IQTISODIYOT INSTITUTI

Geologiya va konchilik fakulteti

**5311500 - «Geodeziya, kartografiya va kadastr» bakalavriatura ta‘lim
yo‘nalishi**

“Konchilik ishi va geodeziya” kafedrası

**Qashqadaryo viloyati G‘uzor tumani “Navro‘z” massivida avtomobil yo‘llari
kadastrini yuritish mavzusida**

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

BMIni bajaruvchi:

Soriyev Asqarjon Eshmuradovich

BMI rahbari

G‘ofirov Muzaffar Jumayevich

Maslahatchi

Aralov Muzaffar Muhammadiyevich

«Himoyaga ruxsat etildi»

«Himoya uchun DAK ga

Kafedra mudiri_____

yuborildi» fakultet dekani

q.x.f.n.G‘.Aliqulov

_____dos.M.I.Rahmatov

«_____»_____2016 y.

«_____»_____2016 y.

Qarshi 2016

QARSHI MUHANDISLIK IQTISODIYOT INSTITUTI

Geologiya va konchilik fakulteti “Konchilik ishi va geodeziya” kafedrası
“Geodeziya, kartografiya va kadastr” yo‘nalishi

“Tasdiqlayman”
“GK va K” Kaf.mudiri
_____ G‘.Aliqulov
«___» _____ 2016 y.

MALAKAVIY BITIRUV ISHI BO‘YICHA TOPSHIRIQ

Talaba: Soriyev Asqarjon Eshmuradovich

1. Bitiruv ishining mavzusi: Qashqadaryo viloyati G‘uzor tumani “Navro‘z” massivida avtomobil yo‘llari kadastrini yuritish « 25 » yanvar 2016 yilda institutning №24/T sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan.

2. Bitiruv ishini topshirish muddati: 2016 yil

3. Bitiruv ishini bajarishga doir boshlang‘ich ma’lumotlar: BMI oldi amaliyoti davrida yig‘ilgan ma’lumotlar va materiallar.

4. Hisoblash - tushuntirish yozuvlarining tarkibi (ishlab chiqiladigan masalalar ro‘yxati): 1. Kirish. 2. “Navro‘z” massivining tabiiy-iqtisodiy tavsifi. 3. Avtomobil yo‘llari kadastrini yuritishning nazariy va uslubiy masalalari. 4. “Navro‘z” massivida mavjud avtomobil yo‘llarining davlat kadastrini yuritish tartibi. 5. Xulosa. 6. Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

5. Chizma ishlar ro‘yxati (chizmalar nomi aniq ko‘rsatiladi):

1. Qashqadaryo viloyati G‘uzor tumani “Navro‘z” massividagi mavjud yer turlarning amaldagi joylashuv tarxi.

2. Qashqadaryo viloyati G‘uzor tumani avtomobil yo‘llarining joylashish sxemasi.

3. Navro‘z massividagi avtomobil yo‘llarini joylashuv sxemasi.

4. Davlat avtomobil yo‘llari kadastrini ro‘yxatidan o‘tkazish ma’lumotlari.

6. Bitiruv ishi bo‘yicha maslahatchilar.

№	Bo‘lim mavzusi	Maslahatchi o‘qituvchilar f.i.sh	Imzo, sana	
1				
2			30.01.16	06.06.16

7. BITIRUV MALAKAVIY ISHINI BAJARISH REJASI.

T.r	Bitiruv ishi bosqichlarining nomi	Bajarish muddati			Tekshiruv- dan o'tganlik muddati
		sana	kun i	%	
1	BMI ishi uchun torshiriq olish	1.02.16	3	3	2.02.2016
2	BMI uchun dastur tuzish	3.02.16	3	3	5.02.2016
3	BMI ning kirish qismini tayyorlash	10.02- 22.02.2016	10	15	22.02.2016
4	BMIning I bobi: "Navro'z" massivining tabiiy-iqtisodiy tavsifi.	24.02- 06.03.2016	12	35	06.03.2016
5	Massivning yer turlari joylashish tarxini va tuproq xaritasini chizish	08.03- 12.03.2016	5	42	12.03.2016
6	BMI ning II bobi: Avtomobil yo'llari kadastrini yuritishning nazariy va uslubiy masalalari.	13.03- 14.04.2016	10	70	14.04.2016
7	BMI ning III bobi: Navro'z massividagi avtomobil yo'llari kadastrini ro'yxatga olish xujjatlarini rasmiylashtirish natijalari.	16.04- 19.05.2016	6	85	19.05.2016
8	BMIning xulosa qismini tayyorlash	24- 29.05.2016	2	92	29.05.2016
9	BMIning foydalanilgan adabiyotlar va manbalar ro'yxatini tayyorlash	02- 06.06.2016	2	95	06.06.2016
10	BMI ni rasmiylashtirish va kafedraga topshirish	19.06.2016	3	100	19.06.2016

Bitiruv ishi rahbari:

G'ofirov Muzaffar Jumayevich

Topshiriqni bajarishga oldim:

Soriyev Asqarjon Eshmuradovich

Topshiriq berilgan vaqti

«1» fevral 2016 yil

QARSHI MUHANDISLIK-IQTISODIYOT INSTITUTI

GEOLOGIYA VA KONCHILIK FAKULTETI

“Konchilik ishi va geodeziya” kafedrası

**5311500-« Geodeziya, kartografiya va kadastr» bakalavriatura ta’lim
yo‘nalishi**

«Tasdiqlayman»

kafedra mudiri

_____ G‘.N.Aliqulov

“ ____ ” _____ 2016 yil

**“Qashqadaryo viloyati G‘uzor tumani Navro‘z massivida avtomobil yo‘llari
kadastrini yuritish” mavzusidagi bajariladigan**

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

D A S T U R I

Bajaruvchi:

Soriyev Asqarjon Eshmuradovich

Rahbar:

G‘ofirov Muzaffar Jumayevich

Qarshi- 2015 y.

Kirish.

1-bob. “Navro‘z” massivining tabiiy-iqtisodiy tavsifi.

- 1.1. “Navro‘z” massivi to‘g‘risida umumiy ma’lumotlar.
- 1.2. Massiv hududining iqlim va tuproq tavsifi.
- 1.3. Massivning ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlari.
- 1.4. Navro‘z massivida avtomobil yo‘llarining holati

2-Bob. Avtomobil yo‘llari kadastrini yuritishning nazariy va uslubiy masalalari.

- 2.1. Avtomobil yo‘llari kadastrini yuritishning nazariy masalalari. maqsadi, mazmuni va vazifalari.
- 2.2. Avtomobil yo‘llarini ro‘yxatga olishning huquqiy asoslari.
- 2.3. Avtomobil yullari davlat kadastrini yuritishni tartibi
- 2.4. Mehnat muhofazasi va texnika xavfsizligi.

3-BOB. “Navro‘z” massivida mavjud avtomobil yo‘llarining davlat kadastrini yuritish tartibi

- 3.1 “Navro‘z” massivida geodezik-topografik dala qidiruv ishlari
- 3.2 Navro‘z massivi hududidagi 4P58 raqamli mahalliy yo‘lning mintaqaviy chizig‘ida joylashgan yerdan foydalanuvchilarning yo‘qlamadan o‘tkazish ishlari.
- 3.3 Avtomobil yo‘llari davlat kadastrini obektlarini Navro‘z massivi misolida geografik axborot ma’lumotlar bazasini yaratish va yuritish.

XULOSA

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

Ilovalar

Kirish.

Avtomobil yo'llari davlat kadastri - bu avtomobil yo'llari obektlari, ularning geografik holati, huquqiy maqomi, miqdor va sifat tavsiflari va iqtisodiy baholash to'g'risidagi yangilanib turiladigan ishonchli axborot tizimidir. AYDK DKYATning tarkibiy qismi hisoblanadi hamda avtomobil yo'llari obektlarini hisobga olish va ularning holatini baholash maqsadida yuritiladi.

Avtomobil yo'llari davlat kadastri "Davlat kadastrlari to'g'risida", "Avtomobil yo'llari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonunlariga va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2005 yil 16 fevraldagi 66-son qarori bilan tasdiqlangan Davlat kadastrlari yagona tizimi (DKYAT)ni yaratish va yuritish tartibi to'g'risidagi nizomga muvofiq yuritiladi.

Avtomobil yo'llari obektlariga tegishli bo'lgan yer uchastkalari, binolar va inshootlarga bo'lgan huquqlarni davlat ro'yxatidan o'tkazish ko'chmas mulkka bo'lgan huquqlarni ro'yxatdan o'tkazish uchun belgilangan tartibda vakolatli organlar tomonidan amalga oshiriladi. Avtomobil yo'llari obektlariga tegishli bo'lgan, davlat yer kadastridan AYDKga berilayotgan yer uchastkalari to'g'risidagi yer-kadastr axborotida maqsadli foydalanilishi buyicha yerning tarkibi to'g'risidagi, yer uchastkalariga bo'lgan huquq davlat ro'yxatidan o'tkazilganligi, yerning mikdori va sifati to'g'risidagi ma'lumotlar bo'lishi kerak.

AYDKni yuritish avtomobil yo'llari obektlarining barcha turlarini ro'yxatdan o'tkazishdan, ularning miqdor va sifat tavsiflarini hisobga olishdan, obektlarni ekologik-iqtisodiy baholashdan, shuningdek kadastr axborotlarini to'plash, tahlil qilish, tizimlashtirish, saqlash, yangilashdan va uni qonunda belgilangan tartibda manfaatdor foydalanuvchilarga taqdim etishdan iboratdir. Shuning uchun bitiruv malakaviy ishini bajarishda mamlakatimizda qishloq xo'jaligidagi iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish dasturini amalga oshirish chora-tadbirlariga, avtomobil yo'llari kadastri to'g'risidagi qonundan foydalanildi.

Bitiruv malakaviy ishini bajarish uchun Qashkadaryo viloyati G'uzor tumanidagi «Navro'z» massivi yerlari asosiy obekt qilib tanlandi. Bitiruv malakaviy ishini bajarish uchun amaliyot davrida to'plangan materiallar, meyoriy xujjatlar, maxsus adabiyotlar va boshqa manbalardan foydalanildi.

O'kuv jarayonida olingan nazariy bilimlarni uslubiy va amaliy jihatdan qo'llash ko'nikmalarini hosil qilish uchun avtomobil yo'llari kadastri ishlarini yuritish asosiy maqsad qilib olingan.

I-BOB
«Navro‘z» massivining
tabiiy-iqtisodiy tavsifi

1-bob. «Navro‘z» massivining tabiiy-iqtisodiy tavsifi.

1.1. «Navro‘z» massivi to‘g‘risida umumiy ma‘lumotlar.

Navro‘z massivi Qashkadaryo viloyati G‘uzor tumanida joylashgan. «Navro‘z» massivi 1972 yil tashkil topgan. «Navro‘z» massivi asosan paxta va g‘alla ekinlari mahsulotlarini yetishtirishga ixtisoslashgan. Qushimcha yunalishlardan polizchilik va bog‘dorchilik, pillachilik mahsulotlari ham yetishtiriladi.

«Navro‘z» massivi shimoldan Tohir Zuhra nomli massiv yerlari, janubiy-shark tomonidan A.Tursunov nomli massiv yerlari, g‘arb tomondan A.Navoiy nomli massiv, sharqdan Navbahor massivi yerlari bilan chegaradosh.

«Navro‘z» massivining umumiy yer maydoni 4010 ga. 2054 ga maydon ekin yerlari, shundan 1734 gektari sug‘oriladigan yerlar, 320 gektari lalmi, ko‘p yillik daraxtzorlar 27 gektar, bo‘z yerlar 66 gektarni, pichanzor va yaylovlar 831 gektar yerni egallagan. Tomorqa uchun 127 gektar ajratilgan.

Aholi yashash joylari tavsifi.

«Navro‘z» massivining bir qismi tuman markazi bilan juda yaqin masofada joylashgan. Natijada massiv viloyat va tuman markazlari hamda mahsulotlarni qabul qilish po‘nklari bilan asfalt yo‘llar orqali bog‘langan. Massiv markazidan tuman markazigacha 8 km, viloyat markazigacha 45 km ni tashkil qiladi. Ma‘muriy hududiy bo‘linishi bo‘yicha massiv «Sovbog‘» fuqorolar yig‘iniga qaraydi. Ushbu fuqorolar yig‘ini raisining 2014 yil 1-yanvarigacha bergan ma‘lumotlariga qaraganda massiv hududida 3 ta katta kichik qishloqlar mavjud bo‘lib, ulardagi mavjud 6280 nafar aholi istiqomat kiladi. Oilalar soni - 1336 ta. Aholi po‘nklari massivning barcha qismlarida joylashgan. Yashash uylarining aksariyat kismi xususiy holda qurilgan uy-joylardan iborat.

Qishloqlarning barchasi elektr enengiyasi bilan to‘la ta‘minlangan. Qishloqlar ichida eng asosiysi «Sovbog‘» qishlog‘i hisoblanadi. Bu qishloq xo‘jalik markazida joylashgan bo‘lib, unda massivning boshqaruv idorasi, qishloq vrachlik po‘nkti, texnikani ta‘mirlash ustaxonasi, ombor binolari, maktab, bolalar bog‘chasi, madaniyat saroyi, magazin va keyingi yillarda tashkil etilgan kichik korxonalar mavjud. Yordamchi qishloqlarga esa Qumchupota va Saroy qishloqlari kiradi.

1-jadval

Massivdagi aholi yashash joylari tavsifi

Qishloqlar nomi	Oila-lar soni	Aholi soni		Madaniy maishiy bino va inshootlar	Obodon-lashtirish	Bajara-digan vazifasi
		ham-masi	mehnat-ga yaroq-li			
Sovbog‘	787	3699	1425	O‘yingoh, maktab, do‘kon, dorixona, idora, kulub, kasalxona, QVP	elektrlashgan	Markaziy qishloq
Saroy	421	1978	801	maktab, dorixona, do‘kon	elektrlashgan	yordamchi qishloq
Qumchupota	128	603	240	dorixona, do‘kon	elektrlashgan	yordamchi qishloq
Jami	1336	6280	3603			

1.2. Massiv hududining iqlim va tuproq tavsifi.

Iqlimi

Massiv joylashgan tuman va viloyat iqlimi kontinental iqlim bulib asosiy dehqonchilik mahsulotlari va qishloq xo'jaligining boshqa tarmoqlarini rivojlantirish uchun ancha qulay hisoblanadi.

Ko'p yillik ob-havoni kuzatishdan ma'lumki, bir yillik o'rtacha harorat bu yerda 17-19° S ni tashkil qiladi va eng issiq davrda havoning harorati +42 - +45° S ni, eng sovuq davrada esa -22 —24° S ni tashkil qiladi.

Vigitasiya davridagi foydali harorat yigindisi 2220-2260° tashkil etadi. G'uzor tumanining o'rtacha iqlim harorati «G'uzor» meteostansiyasidan olingan ma'lumotlarga karaganda quyidagicha:

- bir yillik urtacha harorat - +10,8° S
- yanvar oyidagi urtacha harorat - -4,0° S
- iyul oyidagi urtacha harorat - +32,6° S

G'uzor tumanida, jumladan «Navro'z» nomli massivi hududida sovuq kunlar miqdori 70 kunni tashkil etadi. Qishning (noyabrning ikkinchi yarmi, dekabr, yanvar, fevral, martning birinchi yarmi) 26% davrida tuproqning holati bo'yicha unga ishlov berish mumkinligi aniqlangan. Tuproqning eng chuqur muzlash davri ba'zida 28 - 50 sm tashkil qiladi. Sovuqsiz kunlar 200 - 210 kunni tashkil qiladi.

G'uzor tumanida yer muzlashining sungi davri 25 fevral va ilk muzlashi 28 noyabr xisoblanadi.

Qishloq xo'jalik ekinlarini ekish uchun eng qulay muddat massivda mart oyining oxiri va aprel oyining boshlariga to'g'ri keladi.

Massiv hududida yil davomida yog'ingarchilik kam bo'ladi va 80-100 mm tashkil qiladi. Eng ko'p yog'ingarchilik bahor oylarida bo'ladi. Yoz oyida umuman yog'ingarchilik bo'lmaydi.

«Navro'z» nomli massivi umuman iqlim sharoiti buyicha paxta yetishtirishga qulaydir. Quyida ikkinchi jadvalda iqlimning asosiy ko'rsatkichlari keltirilgan.

2-jadval.

G'uzor meteostansiyasining ma'lumotlariga asosan iqlimning asosiy ko'rsatkichlari.

Oylar												O'rtacha iqlim
I	II	III	IV	V	VI	VII	VIII	IX	X	XI	XII	
Havoning o'rtacha oylik harorati, S°												
-4,2	-1,5	5,6	14,5	21,0	25,3	24,4	24,9	18,8	11,1	4,0	-1,5	12,4
O'rtacha oylik namgarchilik miqdori, mm												
10	9	18	10	6	3	2	1	1	3	7	12	8,2

Relifi.

Relifi quyidagi elementlardan tashkil topgan:

- tekislikdagi maydonlar;
- kosasimon past tekisliklar;
- tulqinsimon tekisliklar.

Tekshirilgan yerlardagi tuproqlarning mexanik tarkibi sizot suvlari satxi va ularning minerallashganlik darajasiga shu relief turlarining tuzilishiga bevosita bog'lik. Tekislangan maydonlar joylashgan bo'lib tuproq kesmasining past va o'rta qismida har xil qumoqli ayrim joylarda loyli va qumli jinslardan tuzilgan.

Tulqinsimon tekisliklar yangidan o'zlashtirilgan proillyuvilar jinslardan tuzilgan va ular asosan adirli past tekis joylarda rivojlangan. Ularning mexanik tarkibida turli qumoqlar, shag'allar va har xil toshlardan tashkil topgan.

Shunday qilib Navro'z massivining reliefi ko'p joylarda tekislangan maydonlardan tashkil topgan. Ularda rivojlangan va tarqalagan tuproqlarning mexanik tarkibi qumli, qumoqli va ayrim joylarda og'ir qumoqli va loyli bo'lib, o'ziga xos va mos xossalarga egadir.

Tuproqlari.

«Navro'z» massivi yerlarida quyidagi genetik guruhga kiruvchi tuproqlar uchraydi: qadimdan

sug'oriladigan, sug'oriladigan va yangidan o'zlashtirilgan utloqi allyuvial, o'tloqi, sug'oriladigan o'tloqi taqirsimon, sug'oriladigan taqirsimon vohali va boshqa turli darajada sho'rlangan tuproqlar tarqalgan.

Bu tuproqlar turlarining asosiy fizikaviy va kimyoviy xossalari «Navro'z» massivining tuproq xaritasida va uning eksplikasiyasida ko'rsatilgan va tushuntirilgan.

O'rganilgan turli tuproqlarning kimyoviy tahlil natijalari, ulardagi tuzlar tarkibi, mikdori va sifati massiv uchun tuzilgan tuproqlar sho'rlanish kartogrammasida va unga tegishli eksplikasiyada aniq ko'rsatilgan.

Yerlarning meliorativ xolatini yaxshilash va tuproqlarning sho'rini yuvish uchun massivdagi va xo'jaliklararo bo'lgan kollektor, zovur va drenajlarning chuqurligini 2,5-3,0 m chuqurlikka yetkazib, ularning oqavaligini yaxshi ta'minlash lozim. Bu ishlarni kompleks agrotexnik va meliorativ tadbirlarni qo'llash bilan amalga oshirish mumkin. Buning natijasida massivning yer maydonlarida sho'r tuproqlarning maydonlari kamayadi, ularning unumdorligi ko'payadi, qishloq xo'jalik ekinlarining hosildorligi oshadi.

Irrigasiya va meliorasiya shaxobchalarining tavsifi.

Sug'oriladigan dehqonchilik sharoitini o'rganish jarayonida bu joydagi irrigasiya va meliorasiya shaxobchalari to'g'risida to'laroq ma'lumotlarga ega bulish muhim ahamiyatga ega.

Massivning suv bilan ta'minlanishi o'rtacha. Qurg'okchilikka uchragan yillarda (2011-2012) massivda suv tanqisligi yaqqol nomoyon bo'ldi shu munosabat bilan sug'oriladigan maydonlarda yerlarni sug'orish uchun zaxkash suvlaridan ham ba'zan foydalaniladi.

«Navro'z» massivining barcha maydonlari sug'orish tarmokdari bilan yetarlicha yaxshi ta'minlangan. Bundan asosiysi massiv xududidan o'tuvchi sug'orish kanalidir. Massiv ichida qurilgan sug'orish kanallarining asosiy kamchiligi shundan iboratki, ushbu tarmoklar asosan yerda qazilgan, turli injenerlik - gidrotexnik inshootlar bilan kam ta'minlangan.

1.3. Massivning ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlari.

Yerdan foydalanish holati.

«Navro'z» massivi asosan qadimdan sug'oriladigan dehqonchilik mintaqasida joylashgan bo'lib, unda yetakchi tarmoq paxtachilik va g'allachilik hisoblanadi. Keyingi yillarda massivda paxtachilik, donchilik, sabzavotchilik va bog'dorchilik tarmoqlari rivojlanmoqda. Massiv hududida yordamchi tarmoq hisoblangan chorvachilikda esa go'sht-sut qoramolchilik va pillachilik rivojlangan. Iktisodiyotning bozor munosabatlariga o'tayotganligi natijasida massiv hududida qator mahsulotlarni qayta ishlash korxonalari tashkil etilgan.

«Navro'z» massivi G'uzor tumanining shimoliy g'arb kismi kismida joylashgan. «Navro'z» massivining 2014 yil 1 yanvardagi ma'lumotlarga kura umumiy maydoni 4010 gektar bo'lib, shundan ekin yerlar 2054 gektarni tashkil kiladi.

3-jadval

Navro'z massivining yer fondi

T/r	Yer turlari	Maydoni		
		Gektar	Umumiy maydonga nisbatan, % hisobida	Qishloq xo'jalik yerlariga nisbatan, % hisobida
1.	Haydalma yerlar: Sug'oriladigan	2054 1737	51,23 43,32	68,97
2.	Daraxtzorlar:	27	0,66	0,91
	Shu jumldan:			
	Bog'lar	9	0,22	0,3
	Uzumzor	-		
	Tutzorlar	18	0,44	0,61
	Terak	-		
3.	O'tloq va yaylovlar	831	20,73	27,91
4.	Bo'z yerlar	66	1,65	2,21
	Jami qishloq xo'jalik yerlari	2978	74,27	100
5.	Tomorqa yerlari	127	3,16	

6.	Dalalarni himoyalovchi ixota daraxtlari	14	0,35	
7.	Meliorativ holatdagi yerlar	490	12,22	
8.	Qishloq xo'jaligida foydala-nilmaydigan boshqa yerlar	401	10	
	Jami massiv chegarasidagi yerlar	4010	100	

Yuqoridagi jadvaldan ko'rinadiki massiv umumiy maydonining 51,23 % ni haydalma yerlar tashkil qiladi. Daraxtzorlar maydoni 27 ga, bu esa umumiy maydonning 0,66% ni tashkil etadi. Yer maydonining tahlili shuni ko'rsatadiki, Massiv xududida 831 ga o'tloq va yaylovlar mavjud bo'lib, bu yerlarning bir qismini kelajakda qishloq xo'jaligida foydalanish uchun o'zlashtirish mumkin. Bular foydalaniladigan yer maydonlarini kengaytirishning ichki imkoniyatlari hisoblanadi. Massivdagi fermer xo'jaliklari paxtachilik, g'allachilik, chorvachilik, bog'dorchilik va yem – xashak bo'yicha ixtisoslashgan.

Qishloq xo'jalik yerlari 2978 gektar bo'lib umumiy yer maydoninng 74,27 % tashkil qiladi.

Yukoridagi ma'lumotlar massiv to'g'risidagi umumiy ma'lumotlardir. Shu bilan bir qatorda massivning kelgusidagi rivojlanish istiqbollarini belgilash, fermer xo'jaliklarini tashkil etish, ularga yer ajratish uchun birinchi galda massivning tabiiy, ijtimoiy - iktisodiy sharoitlarini chuqur o'rganish qabul qilinadigan yechimlarni har tomonlama asoslashda katta ahamiyatga ega.

Dehqonchilik tavsifi.

«Navro'z» massivining asosiy dehqonchilik tarmog'i - bu paxtachilik hisoblanadi. Bundan tashqari keyingi yillarda massivda donchilik va sabzavotchilik ham rivojlanib bormoqda. 2011-2012 yillardagi suv tanqisligi qishloq xo'jaligiga jiddiy ta'sirini ko'rsatdi. Quyidagi - jadvalda 2014 yilda massivdagi ekinlar tarkibi maydonlari keltirilgan.

4-jadval.

Qishloq xo'jalik ekinlar tarkibining dinamikasi

№	Ekin turlari	Maydoni, ga
		2014 yil
1.	Paxta	867
2.	Don	780
3.	Boshka ekinlar	87
	Jami	1734

Jadvaldagi ma'lumotlardan ko'rinadiki, asosan ekin maydonlari paxta va don ekinlari bilan band bo'lgan.

Ma'lumki, qishloq xo'jalik yerlaridan ayniqsa sug'oriladigan haydalma yerlardan foydalanish darajasini yuqoridagi keltirilgan ekin maydonlariga ekilgan ekinlar hosildorligi orqali ham aniqlash mumkin.

Navro'z massivi buyicha asosiy ekinlar hosildorligi

№	Qishloq xo'jalik ekinlari	Hosildorlik, s/ga
		2014 y
1.	Paxta	25,2
2.	Don	36,0
3.	Sabzavot	220,0

Jadvaldagi ma'lumotlarga asosan qishloq xo'jalik ekinlarining hosildorlik ko'rsatkichlari har yili turlicha bo'lgan. Masalan, bug'doy hosildorligi tahlil davrida 2013 yili eng yukori kursatkich 33,0 s/ga tashkil etgan bulsa keyingi 2014 yilga kelib bu ko'rsatkich 36,0 s/ga ko'paygan. Paxta hosildorligi tahlil davrida deyarli bir meyorda turganligini ko'rish mumkin. Paxtaning bu ko'rsatkichlari massivning shartnomadagi rejasini bajarish uchun yetarli hosildorlik hisoblanadi. Lekin sabzavot va boshqa ekinlar hosildorliklarining 2011 yilga nisbatan pasayganligi kuzatiladi.

Yuqoridagi ma'lumotlardan shuni ko'rish mumkinki, keyingi yillarda ruy bergan salbiy oqibatlar natijasida massiv yerlarining meliorativ holati yomonlashishi va yerlarning yaroqsiz ahvolga kelib qolishiga olib kelgan. Bu esa massivlarda sug'oriladigan haydalma yerlardan foydalanish samaradorligini oshirish uchun bir qancha tadbirlarni amalga oshirish zarur ekanligini ko'rsatadi.

1.4. Navro'z massivida avtomobil yo'llarining holati

Massiv yer fondi va undan foydalanish to'g'risida so'z yuritilar ekan, uning iqtisodiyotiga, odamlarning turmush sharoitini oshirishga yo'naltirilgan omillardan biri hisoblangan yo'l tarmoqlarini massivda anchagina rivojlantirilganligini alohida e'tirof etish zarur. Massivning ichki yo'llari 14,3 gektarni tashkil etgani holda, ularning sifati bugungi kunda talabga umuman javob beradi deb ayta olmaymiz, massiv viloyat va tuman markazlari bilan asfalt yo'l inshootlari bilan jihozlangan.

Massiv hududida foaliyat kursatayotgan yerdan foydalanuvchilarga quyidagilar kiradi: Tomorqa xo'jaliklari, maishiy- madaniy obektlar (savdo shaxobchalari, choyxonalar, oshxonalar, maktablar va boshqalar), begona yerdan foydalanuvchilar va boshqalar.

Massivida yerdan foydalanuvchilarni ro'yxatga olish ishlari tahlil qilinganda ularning soni, yerdan foydalanish huquqini beruvchi davlat dadolatnomadariga mos kelmasligi aniklandi. Yer ajratish hujjatlari ham to'liq rasmiylashtirilmagan.

Shu bilan bir qatorda massivning kelgusidagi rivojlanish istiqbollarini belgilash, yer baholash ishlarini aniq va sifatli bajarish uchun birinchi navbatda massivning tabiiy sharoitlari o'rganib, ijtimoiy va iqtisodiy sharoitlarini chuqur tahlil qilib chiqish mavzu bo'yicha kabul qilinadigan yechimlarni har tomonlama asoslashda katta ahamiyat kasb etadi.

Avtomobil yo'llarini ro'yxatga olishda ham ayrim kamchiliklar mavjudligi aniqlandi.

2-BOB

Avtomobil yullar kadastrini yuritishning nazariy va uslubiy masalalari

2-Bob. Avtomobil yo'llari kadastrini yuritishning nazariy va uslubiy masalalari.

2.1. Avtomobil yo'llari kadastrini yuritishning nazariy masalalari. maqsadi, mazmuni va vazifalari.

Avtomobil yo'llari davlat kadastrini - bu avtomobil yo'llari obektlari, ularning geografik holati, huquqiy maqomi, miqdor va sifat tavsiflari va iqtisodiy baholash tug'risidagi yangilanib turiladigan ishonchli axborot tizimi. Avtomobil yo'llari davlat kadastrini Davlat kadastrlari yagona tizimining tarkibiy qismi hisoblanadi hamda avtomobil yo'llari obektlarini hisobga olish va ularning holatini baholash maqsadida yuritiladi. Mavjud bo'lgan va qurilayotgan avtomobil yo'llari, maxsus inshootlar hamda O'zbekiston Respublikasi hududida joylashgan avtomobil yo'llarining boshqa obektlari Avtomobil yo'llari davlat kadastrini obektlari hisoblanadi. "O'zavtoyo'l" davlat-aksiyadorlik kompaniyasi Avtomobil yo'llari davlat kadastrini yuritish bo'yicha vakolatli organ hisoblanadi. Avtomobil yo'llari davlat kadastrini davlat hokimiyati va boshqaruv organlarini, "O'zavtoyo'l" davlat-aksiyadorlik kompaniyasini, manfaatdor yuridik va jismoniy shaxslarni avtomobil yo'llari obektlari tug'risidagi ishonchli kadastr axborotlari bilan ta'minlash uchun mo'ljallangan.

Quyidagilar avtomobil yo'llari davlat kadastrini yuritishning asosiy prinsiplari hisoblanadi:

O'zbekiston Respublikasining avtomobil yo'llari obektlarini tuliq qamrab olish;
makon koordinatlarining yagona tizimini va yagona topografiya asoslarini qullash;
barcha obektlar buyicha kadastr axborotlarini shakllantirishning yagona metodologiyasi;
kadastr axborotlarining ishonchliligi, ko'rgazmaliligi va hujjatlilik;
kadastr axborotlarining ochiqiligi.

Avtomobil yo'llari davlat kadastrini yuritish avtomobil yo'llari obektlarini xatlash, hisobga olish, baholash bilan ta'minlanadi hamda davlat yer kadastrini kadastr axborotlaridan hamda binolar va inshootlar davlat kadastridan majburiy foydalanilishini nazarda tutadi. Avtomobil yo'llari obektlariga tegishli bo'lgan yer uchastkalari, binolar va inshootlarga bo'lgan huquqlarni davlat ro'yxatidan o'tkazish ko'chmas mulkka bo'lgan huquqlarni ro'yxatdan o'tkazish uchun belgilangan tartibda vakolatli organlar tomonidan amalga oshiriladi. Avtomobil yo'llari obektlariga tegishli bo'lgan, davlat yer kadastridan Avtomobil yo'llari davlat kadastriga berilayotgan yer uchastkalari to'g'risidagi yer-kadastr axborotida maqsadli foydalanilishi buyicha yerning tarkibi to'g'risidagi, yer uchastkalariga bo'lgan huquq davlat ro'yxatidan o'tkazilganligi (shu jumladan yerdan foydalanishda servitutlarda belgilangan mavjud cheklashlar va taqiqlar to'g'risidagi ma'lumotlar), yerning miqdori va sifati to'g'risidagi ma'lumotlar bo'lishi kerak.

Bino va inshootlar davlat kadastridan Avtomobil yo'llari davlat kadastriga berilayotgan

avtomobil yo'llari obektlariga tegishli bo'lgan binolar va inshootlar to'g'risidagi kadastr axborotida ulardan maksadli foydalanilishi, huquqlarning davlat ro'yxatidan o'tkazilishi, asosiy miqdor va sifat tavsiflari to'g'risidagi ma'lumotlar bulishi kerak.

Avtomobil yo'llari davlat kadastrini yuritish qog'oz va yoki elektron manbalarda amalga oshiriladi. Avtomobil yo'llari obektlari to'g'risidagi tizimlashtirilgan kadastr axboroti Davlat kadastrlari yagona tizimiga belgilangan tartibda beriladi.

Avtomobil yo'llari davlat kadastrini yaratish va yuritish ishlarini moliyalashtirish O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Respublika yo'l jamg'armasi mablag'lari hisobiga amalga oshiriladi. Avtomobil yo'llari davlat kadastrini yuritish "O'zavtoyo'l" davlat- aksiyadorlik kompaniyasining quyidagi tarkibiy bo'linmalari:

"O'zavtoyo'l" davlat-aksiyadorlik kompaniyasining vakolatli tashkiloti;

hududiy shu'ba yo'l-qurilish tashkilotlarining kadastr bo'linmasi tomonidan amalga oshiriladi.

Avtomobil yo'llari davlat kadastrini yuritish ishlariga umumiy rahbarlikni "O'zavtoyo'l" davlat-aksiyadorlik kompaniyasi raisi amalga oshiradi.

Avtomobil yo'llari davlat kadastrini yuritishni metodik ta'minlash "O'zavtoyo'l" davlat-aksiyadorlik kompaniyasi tomonidan amalga oshiriladi.

Avtomobil yo'llari davlat kadastrini yuritish mazkur Nizomga ilovaga muvofiq sxemaga binoan amalga oshiriladi.

"O'zavtoyo'l" davlat-aksiyadorlik kompaniyasining vakolatli tashkiloti:

avtomobil yo'llari davlat kadastrining avtomatlashtirilgan axborot tizimi joriy etilishi va mavjud bo'lishini ta'minlaydi;

ma'lumotlar bazasi tuzilmasini ishlab chiqadi, uni yo'l korxonalariga beradi, ma'lumotlar bazasi to'g'ri to'ldirilishi ustidan nazorat qiladi;

hududiy sho'ba yo'l-qurilish tashkilotlarining kadastr bilan ishlaydigan xodimlarini avtomobil yo'llari davlat kadastrining avtomatlashtirilgan axborot tizimi bilan ishlashga o'qitishni tashkil etadi;

hududiy shu'ba yo'l-qurilish tashkilotlari tomonidan taqdim etilgan kadastr axborotlarini tizimlashtiradi va uni avtomobil yo'llari davlat kadastrining avtomatlashtirilgan axborot tizimiga kiritadi;

avtomobil yo'llarining yangi obektlari to'g'risidagi hisobga olish va baholash ma'lumotlari to'planishi ustidan nazorat qiladi;

kadastr axborotlari DKYATga tezkor berilishini amalga oshiradi;

har yili belgilangan tartibda DKYATga "O'zavtoyo'l" davlat- aksiyadorlik kompaniyasining avtomobil yo'llari obektlarining holati va ulardan foydalanish to'g'risida hisobot takdim etadi.

"O'zavtoyo'l" davlat-aksiyadorlik kompaniyasining hududiy shu'ba yo'l- qurilish tashkilotlari:

avtomobil yo'llari obektlarining miqdor va sifat holatidagi joriy o'zgarishlar, ularning atrof muhitga ta'siri, ekologik-iqtisodiy baholash to'g'risidagi axborotlarni to'playdi va tizimlashtiradi;

avtomobil yo'llari obektlari kadastr daftarlarini yuritadi, ma'lumotlar bazasini to'ldiradi va ularni tizimlashtirish va avtomobil yo'llari davlat kadastrining avtomatlashtirilgan axborot tizimiga kiritish uchun "O'zavtoyo'l" davlat-aksiyadorlik kompaniyasi vakolatli tashkilotining kadastr bo'limiga beradi;

avtomobil yo'llarining yangi obektlarini hisobga qo'yadi, ular to'g'risidagi hisobga olish va baholash ma'lumotlarini to'playdi.

"O'zavtoyo'l" davlat-aksiyadorlik kompaniyasi tizimidan tashqarida mavjud bo'lgan

avtomobil yo'llari obektlarining

Egalari foydalanuvchilar "O'zavtoyo'l" davlat-aksiyadorlik kompaniyasining vakolatli tashkilotiga kadastr obektlarining jug'rofiy holati, huquqiy maqomi, miqdor tavsiflari va baholanishi, shuningdek ular holatining joriy o'zgarishlari to'g'risidagi axborotni taqdim etishi shart.

AYDKni yuritish avtomobil yo'llari obektlarining barcha turlarini ro'yxatdan o'tkazishdan, ularning miqdor va sifat tavsiflarini hisobga olishdan, obektlarni ekologik-iqtisodiy baholashdan, shuningdek kadastr axborotlarini to'plash, taxlil qilish, tizimlashtirish, saqlash, yangilashdan va uni qonunda belgilangan tartibda manfaatdor foydalanuvchilarga taqdim etishdan iboratdir.

Avtomobil yo'llari obektlari ro'yxati ularning miqdor va sifat tavsiflarini hisobga olish, ekologik-iqtisodiy baholash uchun asos hisoblanadi.

Avtomobil yo'llari obektlarining barcha turlari birlamchi ro'yxatga olinishi kerak. Bunda asosiy ko'rsatkichlar qayd etiladi. Asosiy ko'rsatkichlarning tarkibi "Yergeodezkadastr" davlat qo'mitasi bilan kelishuv buyicha "O'zavtoyo'l" davlat-aksiyadorlik kompaniyasi tomonidan tasdiqlanadigan tegishli normativ hujjatlar bilan belgilanadi. Ro'yxat natijalari buyicha har bir obektga pasport tuziladi.

Miqdor va sifat tavsiflarining asosiy hisobga olinishi hisobga qo'yish paytida foydalanishga topshirilgan va mavjud bo'lgan avtomobil yo'llarining har bir obekti buyicha amalga oshiriladi.

Avtomobil yo'llari obektlari tavsiflarida yuz beradigan bundan keyingi o'zgarishlar joriy hisobga olishda qayd etiladi.

Avtomobil yo'llari obektlarining miqdor va sifat tavsiflari hisobga quyilishi ularning iqtisodiy,

texnologik va ekologik belgilar buyicha tasniflanishini o'z ichiga oladi, ularning tarkibi AYDKni yuritish bo'yicha normativ hujjatlar bilan belgilanadi.

Avtomobil yo'llari obektlarining miqdor va sifat tavsiflarini hisobga olish uchun "Yergeodezkadastr" davlat qo'mitasi bilan kelishuv buyicha "O'zavtoyo'l" davlat-aksiyadorlik kompaniyasi tomonidan texnik parametrlar va kadastr axborotini taqdim etish formatlari ishlab chiqiladi. hisobga olish axboroti korxonaning kadastr daftariga yoziladi va avtomobil yo'llari davlat kadastrining avtomatlashtirilgan axborot tizimiga kiritiladi. Avtomobil yo'llari obektlarini iqtisodiy baholash avtomobil yo'llari har bir obektining kiymatini belgilash, soliq solish, xususiylashtirish va boshqa maqsadlar uchun o'tkaziladi.

Avtomobil yo'llari obektlarini iqtisodiy baholash o'ziga xosliklar hisobga olingan holda qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi. Avtomobil yo'llari obektlari to'g'risidagi kadastr axborotining ishonchiligi uchun tarkibiy bo'linmalar raxbarlari va "O'zavtoyo'l" davlat-aksiyadorlik kompaniyasining Avtomobil yo'llari davlat kadastrini yuritadigan vakolatli shaxslari javob beradilar.

2.2. Avtomobil yo'llarini ro'yxatga olishning huquqiy asoslari.

"O'zbekiston Respublikasidagi avtomobil yo'llari kadastrining holati va tuzish Yo'riqnomasi "O'zavtoyo'l" Davlat Aksionerlik konserni tomonidan tasdiqlangan (1997 y.). Ushbu yo'riqnoma amaliy normativ hujjat bo'lib davlat avtomobil yo'llari kadastrini uchun qo'llaniladi.

Avtomobil yo'llar kadastrini quyidagilarni o'z ichiga oladi:

1. Davlat avtomobil yo'llari kadastridagi obektlarni ro'yxatga olish.
2. Davlat avtomobil yo'llari kadastridagi asosiy obektlarni texnik harakteristikasi.
3. Davlat avtomobil yo'llari kadastridagi obektlarni baholash.
4. Korxona kadastrini kitobini tashkil etish.
5. Korxonani kadastr planini tuzish.
6. Davlat avtomobil yo'llari kadastrining yil hisobotini tuzish.
7. Davlat avtomobil yo'llari kadastriga avtomatlashtirilgan informatsion tizim kiritish.
8. Boshqalar:
 - a) korxonaning kadastr plani - tuman avtomobil yo'llari boshqarmasi.
 - b) korxonaning kadastr kitobi - asfalt beton zavodi
 - v) korxonaning kadastr kitobi - kareralar
 - g) korxonaning kadastr kitobi - ta'mirlash zavodi, qurilish boshqarmasi,temirbeton zavodi, avtobaza uchun (har bir uchun alohida) shakl.

Davlat avtomobil yo'llari kadastridagi obektlar va tarmoqlarni ro'yxatdan o'tkazish. Davlat avtomobil yo'llari kadastridagi obektlarni yagona "O'zavtoyo'l" davlat aksionerlik konserni ro'yxatdan o'tkazadi.

"O'zavtoyo'l" Davlat avtomobil yo'llari kadastriga qarashli obektlarni huquqiy tomondan quyidagilarni ro'yxatga oladi. Tuman avtomobil yo'llari boshqarmasi, karer, avtokorxona, ta'mirlash zavodi, asfalt-beton zavodi, temir-beton zavodlarini kadastr hujjatiga kiritiladi.

Avtomobil yo'llariga qarashli huquqiy yer maydonida joylashgan obektlar yer kadastriga ham qarashli bo'ladi. Yer kadastr orqali yer uchastkalari huquqi subektlarini ro'yxatdan o'tkazish kerak, uni avtomobil yo'llari kadastr ro'yxatidan o'tkazilishi, yo'l kadastriga kiritishda yer kadastrining informatsion sistemasi orqali ro'yxatga olinishi kerak.

Avtomobil yo'llar kadastr subektlari huquqini ro'yxat qilishda asosiy ko'chmas mulk obektlarini davlat inshoot va binolar kadastr orqali ro'yxatga olinadi. Ro'yxatga olish huquqi subekt ko'chmas mulk qilinadigan davlat miqyosidagi bino va obektlar ro'yxatga olingan avtoyo'l kadastriga, bino va obektlar kadastridan ma'lumot berilishi kerak.

Avtomobil yo'llari kadastriga umumiy foydalanuvchi yo'llar va asosiy obektlar shularga: ko'priklar, tonnellar, asfalt beton zavodi, karerlar, maydalovchi sexlar, temir beton konstruksiya ishlab chiqaruvchi zavod, ta'mirlash zavodi, trest va qurilish boshqarmasi, avtokorxonalar, sotsial obektlar avtoyo'llar kadastrini ro'yxat qilishda inshoot va binolar kadastr ma'lumotlar orqali ro'yxat qilinishi kerak. Avtomobil yo'llari kadastriga yo'l atrofidagi yer uchastkalari ham kiradi. Ma'lumotlarni yer kadastr informatsion tizimidan olinadi.

Avtomobil yo'llari kadastr ro'yxatiga kirish uchun quyidagi ma'lumotlar kerak:

- > inshoot nomi;
- > vedomostga qarashligiligi.
- > to'liq nomlanishi.
- > tashkil etilgan vaqti.
- > asosiy hujjat, nimaga asoslanib inshoot tashkil kilingan.
- > davlat korxonasining nomi.
- > yer uchastkasini ro'yxatga hisobga olingan vaqti.

Kim tomonidan yer uchastkasi foydalanishga berilgan vaqti va davlat akti nomeri.

- > yer uchastkasini umumiy maydoni
- > yer uchastkalarini soni
- > obektlarning yer uchastkasi plani
- > tuman yer uchastkasini sxemasi
- > yer uchastkasini yaroqsizligi, kim tomonidan tasdiqlangan, qachon va akt nomeri
- > yer uchastkasini chegarasi qachon va kim tomonidan qayd etilgan
- > yer uchastkasidagi yer turlari strukturasi
- > yer uchastkasining egasi va foydalanuvchi subektini tiklash.
- > yer uchastkasini doimo yerdan foydalanuvchi bilan o'rtasidagi shartnomasi, ikkinchi vaqtga foydalanish maydoni, uni to'g'ri yunaltirish

"Avtomobil yo'llari kadastr obektini va subektini ro'yxatdan o'tkazish" kismida avtomobil yo'llarini korxona kadastr kitobiga ro'yxatdan o'tkazilishi kerak. "O'zavtoyo'l" konserni birinchi navbatda davlat avtomobil yo'llar kadastriga qarashli subektlarini ro'yxatdan o'tkazadi.

Davlat avtomobil yo'llari kadastr ro'yxatidan o'tkazish uchun quyidagi ma'lumotlar kerak:

- obekt turi, uning nomi
- obektni kadastr kodi
- avtomobil yo'llari obektini umumiy nomi va obektni nomeri
- obektni joylashgan joyi
- obektni toifasi
- obektni foydalanishga topshirilgan vaqti
- xizmat qilish zonasi
- obektni quvvati
- yer uchastkasini maydoni

Kadastr ro'yxati, kadastr ma'lumoti davlat avtoyo'llar kadastr korxona kitobiga kiritiladi. Davlat avtomobil yo'llari ro'yxatidan birinchi navbatda ro'yxatdan obektni o'tkazishda ma'lumotlar va foydalanishga topshirilganligi, so'nggi vaqtidagi kadastr obektini holati tekshiriladi va ma'lumot olinadi.

2.3. Avtomobil yullari davlat kadastrini yuritishni tartibi

Avtomobil yo'llari davlat kadastr (AYDK) "Davlat kadastrlari to'g'risida", "Avtomobil yo'llari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonunlariga va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2005 yil 16 fevraldagi 66-son qarori bilan tasdiqlangan Davlat kadastrlari yagona tizimi (DKYAT)ni yaratish va yuritish tartibi to'g'risidagi nizomga, boshqa normativ-huquqiy hujjatlarga va mazkur Nizomga muvofiq yuritiladi.

AYDK - bu avtomobil yo'llari obektlari, ularning jug'rofiy holati, huquqiy maqomi, miqdor va sifat tavsiflari va iqtisodiy baholash to'g'risidagi yangilanib turiladigan ishonchli axborot tizimi. AYDK DKYATning tarkibiy qismi hisoblanadi hamda avtomobil yo'llari obektlarini hisobga olish va ularning holatini baholash maksadida yuritiladi. Mavjud bo'lgan va ko'rilayotgan avtomobil yo'llari, maxsus inshootlar hamda O'zbekiston Respublikasi hududida joylashgan avtomobil yo'llarining boshqa obektlari AYDK obektlari hisoblanadi.

"O'zavtoyo'l" davlat-aksiyadorlik kompaniyasi AYDKni yuritish buyicha vakolatli organ hisoblanadi. AYDK davlat hokimiyati va boshqaruv organlarini, "O'zavtoyo'l" davlat-aksiyadorlik kompaniyasini, manfaatdor yuridik va jismoniy shaxslarni avtomobil yo'llari obektlari to'g'risidagi ishonchli kadastr axborotlari bilan ta'minlash uchun mo'ljallangan. Quyidagilar AYDKni yuritishning asosiy prinsiplari hisoblanadi:

- ❖ O'zbekiston Respublikasining avtomobil yo'llari obektlarini to'liq qamrab olish;
- ❖ joy koordinatlarining yagona tizimini va yagona topografiya asoslarini qo'llash;
- ❖ barcha obektlar bo'yicha kadastr axborotlarini shakllantirishning yagona metodologiyasi;
- ❖ kadastr axborotlarining ishonchliligi, kurgazmaliligi va hujjatlilik;
- ❖ kadastr axborotlarining ochiqqligi.

AYDKni yuritish avtomobil yo'llari obektlarini xatlash, hisobga olish, baholash bilan ta'minlanadi hamda davlat yer kadastr kadastr axborotlaridan hamda binolar va inshootlar davlat kadastridan majburiy foydalanilishini nazarda tutadi.

Avtomobil yo'llari obektlariga tegishli bo'lgan yer uchastkalari, binolar va inshootlarga bo'lgan huquqlarni davlat ro'yxatidan o'tkazish ko'chmas mulkka bo'lgan huquqlarni ro'yxatdan o'tkazish uchun belgilangan tartibda vakolatli organlar tomonidan amalga oshiriladi. Avtomobil yo'llari obektlariga tegishli bo'lgan, davlat yer kadastridan AYDKga berilayotgan yer uchastkalari to'g'risidagi

yer-kadastr axborotida maqsadli foydalanilishi buyicha yerning tarkibi to'g'risidagi, yer uchastkalariga bo'lgan huquq davlat ro'yxatidan o'tkazilganligi (shu jumladan yerdan foydalanishda servitutlarda belgilangan mavjud cheklashlar va takiklar to'g'risidagi ma'lumotlar), yerning miqdori va sifati to'g'risidagi ma'lumotlar bo'lishi kerak.

Bino va inshootlar davlat kadastridan AYDKga berilayotgan avtomobil yo'llari obektlariga tegishli bo'lgan binolar va inshootlar to'g'risidagi kadastr axborotida ulardan maksadli foydalanilishi, huquqlarning davlat ro'yxatidan o'tkazilishi, asosiy miqdor va sifat tavsiflari to'g'risidagi ma'lumotlar bulishi kerak. AYDKni yuritish qog'oz va yoki elektron manbalarda amalga oshiriladi.

Avtomobil yo'llari obektlari to'g'risidagi tizimlashtirilgan kadastr axboroti DKYATga belgilangan tartibda beriladi. AYDKni yaratish va yuritish ishlarini moliyalashtirish O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Respublika yo'l jamg'armasi mablag'lari hisobiga amalga oshiriladi. AYDKni yuritish "O'zavtoyo'l" davlat-aksiyadorlik kompaniyasining quyidagi tarkibiy bo'linmalari:

- ❖ "O'zavtoyo'l" davlat-aksiyadorlik kompaniyasining vakolatli tashkiloti;
- ❖ hududiy shu'ba yo'l-qurilish tashkilotlarining kadastr bo'linmasi tomonidan amalga oshiriladi.
- ❖ AYDKni yuritish ishlariga umumiy raxbarlikni "O'zavtoyo'l" davlat-aksiyadorlik kompaniyasi raisi amalga oshiradi.
- ❖ AYDKni yuritishni metodik ta'minlash "O'zavtoyo'l" davlat-aksiyadorlik kompaniyasi tomonidan amalga oshiriladi.
- ❖ AYDKni yuritish mazkur Nizomga ilovaga muvofik sxemaga binoan amalga oshiriladi.

"O'zavtoyo'l" davlat-aksiyadorlik kompaniyasining vakolatli tashkiloti:

- ❖ avtomobil yo'llari davlat kadastrining avtomatlashtirilgan axborot tizimi joriy etilishi va mavjud bulishini ta'minlaydi;
- ❖ ma'lumotlar bazasi tuzilmasini ishlab chikadi, uni yo'l korxonalariga beradi, ma'lumotlar bazasi to'g'ri tuldirilishi ustidan nazorat qiladi;
- ❖ hududiy shu'ba yo'l-qurilish tashkilotlarining kadastr bilan ishlaydigan xodimlarini avtomobil yo'llari davlat kadastrining avtomatlashtirilgan axborot tizimi bilan ishlashga o'qitishni tashkil etadi;
- ❖ hududiy shu'ba yo'l-qurilish tashkilotlari tomonidan takdim etilgan kadastr axborotlarini tizimlashtiradi va uni avtomobil yo'llari davlat kadastrining avtomatlashtirilgan axborot tizimiga

kiritadi;

- ❖ avtomobil yo'llarining yangi obektlari to'g'risidagi hisobga olish va baholash ma'lumotlari tuplanishi ustidan nazorat qiladi;
- ❖ kadastr axborotlari DKYATga tezkor berilishini amalga oshiradi;
- ❖ har yili belgilangan tartibda DKYATga "O'zavtoyo'l" davlat-aksiyadorlik kompaniyasining avtomobil yo'llari obektlarining holati va ulardan foydalanish to'g'risida hisobot takdim etadi.

"O'zavtoyo'l" davlat-aksiyadorlik kompaniyasining hududiy shu'ba yo'l-qurilish tashkilotlari:

- ❖ avtomobil yo'llari obektlarining miqdor va sifat holatidagi joriy o'zgarishlar, ularning atrof muxitga ta'siri, ekologik-iqtisodiy baholash to'g'risidagi axborotlarni to'playdi va tizimlashtiradi;
- ❖ avtomobil yo'llari obektlari kadastr daftarlarini yuritadi, ma'lumotlar bazasini tuldirdi va ularni tizimlashtirish va avtomobil yo'llari davlat kadastrining avtomatlashtirilgan axborot tizimiga kiritish uchun "O'zavtoyo'l" davlat-aksiyadorlik kompaniyasi vakolatli tashkilotining kadastr bo'limiga beradi;
- ❖ avtomobil yo'llarining yangi obektlarini hisobga kuyadi, ular to'g'risidagi hisobga olish va baholash ma'lumotlarini to'playdi.

"O'zavtoyo'l" davlat-aksiyadorlik kompaniyasi tizimidan tashkarida mavjud bo'lgan avtomobil yo'llari obektlarining egalari foydalanuvchilar "O'zavtoyo'l" davlat-aksiyadorlik kompaniyasining vakolatli tashkilotiga kadastr obektlarining jugrofiy holati, huquqiy makomi, miqdor tavsiflari va baholanishi, shuningdek ular holatining joriy o'zgarishlari to'g'risidagi axborotni takdim etishi shart.

AYDKni yuritish avtomobil yo'llari obektlarining barcha turlarini ro'yxatdan o'tkazishdan, ularning miqdor va sifat tavsiflarini hisobga olishdan, obektlarni ekologik-iqtisodiy baholashdan, shuningdek kadastr axborotlarini to'plash, taxlil qilish, tizimlashtirish, saklash, yangilashdan va uni qonunda belgilangan tartibda manfaatdor foydalanuvchilarga takdim etishdan iboratdir. Avtomobil yo'llari obektlari ro'yxati ularning miqdor va sifat tavsiflarini hisobga olish, ekologik-iqtisodiy baholash uchun asos hisoblanadi.

Avtomobil yo'llari obektlarining barcha turlari birlamchi ro'yxatga olinishi kerak. Bunda asosiy ko'rsatkichlar qayd etiladi. Asosiy ko'rsatkichlarning tarkibi "Yergeodezkadastr" davlat qo'mitasi bilan kelishuv buyicha "O'zavtoyo'l" davlat-aksiyadorlik kompaniyasi tomonidan tasdiklanadigan tegishli

normativ hujjatlar bilan belgilanadi. Ro'yxat natijalari buyicha har bir obektga pasport tuziladi.

Miqdor va sifat tavsiflarining asosiy hisobga olinishi hisobga qo'yish paytida foydalanishga topshirilgan va mavjud bo'lgan avtomobil yo'llarining har bir obekti buyicha amalga oshiriladi.

Avtomobil yo'llari obektlari tavsiflarida yuz beradigan bundan keyingi o'zgarishlar joriy hisobga olishda qayd etiladi. Avtomobil yo'llari obektlarining miqdor va sifat tavsiflari hisobga kuyilishi ularning iqtisodiy, texnologik va ekologik belgilar buyicha tasniflanishini uz ichiga oladi, ularning tarkibi AYDKni yuritish buyicha normativ hujjatlar bilan belgilanadi.

Avtomobil yo'llari obektlarining miqdor va sifat tavsiflarini hisobga olish uchun "Yergeodezkadastr" davlat qo'mitasi bilan kelishuv buyicha "O'zavtoyo'l" davlat-aksiyadorlik kompaniyasi tomonidan texnik parametrlar va kadastr axborotini takdim etish formatlari ishlab chiqiladi. Hisobga olish axboroti korxonaning kadastr daftariga yoziladi va avtomobil yo'llari davlat kadastrining avtomatlashtirilgan axborot tizimiga kiritiladi.

Avtomobil yo'llari obektlarini iqtisodiy baholash avtomobil yo'llari har bir obektining qiymatini belgilash, soliq solish, xususiylashtirish va boshqa maksadlar uchun o'tkaziladi. Avtomobil yo'llari obektlarini iqtisodiy baholash o'ziga xosliklar hisobga olingan xolda qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Avtomobil yo'llari obektlari to'g'risidagi kadastr axborotining ishonchliligi uchun tarkibiy bo'linmalar rahbarlari va "O'zavtoyo'l" davlat-aksiyadorlik kompaniyasining AYDKni yuritadigan vakolatli shaxslari javob beradilar.

2.4. Mehnat muhofazasi va texnika xavfsizligi.

Hayot faoliyati va mehnatning shakllari xilma-xildir. Ular turmushda, jamiyatda, madaniyatda, ishlab chiqarishda, ilmda va boshqa hayot soxalarida kechadigan amaliy, aqliy va ma'naviy jarayonlarni o'z ichiga oladi. Faoliyat jarayonining modelini umumiy holda ikkita elementdan tashkil topgan deb qarash mumkin, ya'ni bir-biri bilan to'g'ri qaytma aloqada bo'ladigan inson va muhit elementlaridir.

Ko'ngilsiz oqibatlarni keltirib chiqaruvchi xodisa, ta'sir va boshqa jarayonlar xavflar deb ataladi. Xavflar yashirin (potensial) va real turlarga ajratiladi. Xavflar uchun quyidagi belgilar xarakterlidir: hayotga tahlika, sog'liqqa zarar, inson a'zolari ishlashining qiyinlashishidir.

Tajriba shuni ko'rsatadiki, har qanday faoliyat potensial xavflidir. Bu tasdiqlanish aksiomal xarakterga egadir va bir vaqtning o'zida tan olinadiki, xavf (tavakkal) darajasini boshqarsa bo'ladi, ya'ni kamaytirs bo'ladi. Bu tasdiqlanish esa ma'qul bo'lgan tavakkal konsepsiyasiga olib keladi. U absolyut xavfsizlikka erishib bo'lmashligini tushunishga asoslanadi.

Xavfsizlik - bu faoliyatning holati bo'lib, ma'lum ehtimollikda xavflarning kelib chiqishini bartaraf qilishdir. Xavfsizlik – bu insonlar oldiga qo'yilgan maqsaddir. Hayot faoliyati xavfsizligi esa maqsadga erishishning vosita, yo'l va usullaridir. "Hayot faoliyati xavfsizligi" xavflar va ulardan himoyalaniшни o'rganadi. Uni o'rganishning predmeti - faoliyat (mehnat)ning bir tomonidir.

Yer maydonlari loyihasini joyga ko'chirishda mehnat muxofazasi.

Ma'lumki, biz yer maydonlari loyihasini joyga ko'chirayotganimizda kameral va dala sharoitidagi ishlarni bajaramiz. Dala sharoitidagi ishlarni bajarish chog'ida ob-havo omillarining har biri ayrim holda yoki bir nechasi birgalikda insonning mehnat qilish qobiliyatiga, sog'ligiga juda katta ta'sir ko'rsatadi. Kameral ish bajarishda ob-havo omillarining deyarli hammasi bir vaqtda ta'sir qiladi. Ba'zi sharoitlarda bunday ta'sir ko'rsatish foydali bo'lishi, masalan sovuq sharoitda quritish natijasida kamaytirilishi mumkin, ba'zi vaqtlarda esa, bir-biriga qo'shilishi natijasida zararli ta'sir darajasi ortib ketishi mumkin, masalan nisbiy namlik va xaroratning ortib ketishi inson uchun og'ir sharoitni vujudga keltiradi. Bundan tashqari, ish joylaridagi havo harakatini oshirish xarorat yuqori bo'lgan vaqtda ijobiy natija beradi, xarorat past bo'lgan vaqtda esa salbiy natija beradi.

Bundan ko'rinib turibdiki, ob-havo omillari ba'zi bir hollarda inson uchun ijobiy va ba'zi bir hollarda esa, salbiy ta'sir ko'rsatib, inson organizmi tashqi muhitga moslashuvini buzib yuborishi mumkin. Tashqi muhitga moslashuv – bu inson organizmining fiziologik va kimyoviy jarayonlari asosida tana xaroratining bir xil chegarada ($36-37^{\circ}\text{S}$) saqlab turish qobiliyati demakdir.

Ob-havo sharoitining doimo o'zgarib turishi tana xaroratining o'zgarmasligini saqlash, inson hayotining asosi bo'lgan organizmdagi biokimyoviy jarayonlarning meyoriy sharoitini ta'minlaydi. Tana xaroratining yuqorida ko'rsatilgan darajadan ortib ketishi issiqlash, sovishi esa sovish deb ataladi. Issiqlash va sovish hayot faoliyatini buzuvchi xalokatli holatni vujudga keltirishi mumkin.

Shuning uchun ham inson organizmida tashqi muhit bilan moslashuvi fiziologik mexanizmi mavjud bo'lib, u markaziy asab sistemasining nazorati ostida bo'ladi. Bu fiziologik mexanizmning asosiy vazifasi organizmda modda almashinuvi natijasida ajralib chiqayotgan issiqlikning ortiqchasini tashqi muhitga chiqarib, issiqlik balansini saqlab turishdir. Tashqi muhitga moslashuv ikki xil: fizik va kimyoviy bo'lishi mumkin. Kimyoviy tashqi muhitga moslashuv organizmning issiqlash davrida modda almashinuvini kamaytirishi va sovishi natijasida modda almashinuvini oshirishi mumkin. Ammo kimyoviy tashqi muhitga moslashuv tashqi muhitning keskin o'zgartirishi borasida fizik tashqi muhitga moslashuvga nisbatan ahamiyati katta emas. Asosan tashqi muhitga issiqlikni almashtirishga fizik tashqi muhitga moslashuvining ahamiyati katta.

Xonalarning xarakteri, yil fasllari va ish kategoriyasiga qarab, ulardagi xarorat, nisbiy namlik va xavo harakatining ish joylari uchun ruxsat etilgan meyorlari belgilangan.

Ish kategoriyalari quyidagicha belgilanadi:

yengil jismoniy ishlar (1-kategoriya) - o'tirib, tik turib yoki yurish bilan bog'liq holda bajariladigan, biroq muntazam jismoniy, zo'riqish yoki yuklarni ko'tarishni talab qilmaydigan ishlar, energiya sarfi soatiga 150 kkal (172 J.s) ni tashkil etadi.

Oʻrtacha ogʻirlikdagi jismoniy ishlar (2-kategoriya) - soatiga 150-250 kkal (172-293 j.s) energiya sarflanadigan faoliyat turlariga kiradi. Bunga doimiy yurish va ogʻir boʻlmagan (10 kg gacha) yuklarni tashish bilan bogʻliq boʻlgan ishlar kiradi.

Ogʻir jismoniy ishlar (3-kategoriya) – muntazam jismoniy zoʻriqish, xususan ogʻir yuklarni (10 kg dan ortiq) muttasil bir joydan ikkinchi joyga koʻchirish va koʻtarish bilan bogʻliq ishlar kiradi. Bunda energiya sarfi soatiga 250 kkal (293 js)dan yuqori boʻladi.

Xarorat, nisbiy namlik va havo harakatining tezligi risoladagi va yoʻl qoʻyilishi mumkin boʻlgan miqdorlar koʻrinishida meyorlanadi. Risoladagi miqdorlar deganda odamda uzoq muddat va muntazam taʼsir qilganda tashqi muhitga moslashuv reaksiyalarini kuchaytirmasdan organizmning meyori faoliyatini va issiqlik holatini saqlashini taʼminlaydigan mikroiklim koʻrsatkichlarining yigʻindisi tushunilib, ular issiqlik sezish moʻtadilligini vujudga keltiradi va ish qobiliyatini yuksaltirish uchun shart-sharoit hisoblanadi. Yoʻl qoʻyilishi mumkin boʻlgan mikroiklim sharoitlari organizmning faoliyatini va issiqlik holatdagi oʻzgarishlarini, fiziologik moslanish imkoniyatlaridan chetga chiqmaydigan tashqi muhitga moslashish reaksiyalarining kuchayishini bartaraf etadigan va tez meyorga soladigan mikroiklim koʻrsatkichlarining yigʻindisidir. Bunda sogʻlik uchun xatarli holatlar vujudga kelmaydi, biroq nomoʻtadil issiqlik sezgilari, kayfiyatning yomonlashuvi va ish qobiliyatining pasayishi kuzatilishi mumkin.

Obektda zilzila sodir boʻlganda aholining xarakati

Zilzila boʻlgan yrning sezilarli tebranishi nisbatan juda kam vaqt koʻpi bilan bir minutgacha davom etadi. Bu tebranishlar koʻngilsiz boʻlib, odamlarda qoʻrquv uygʻotadi.

Bunday sharoitda odam oʻzini tuta bilishi, oʻzini qoʻlga olib, xotirjamlikni saqlashga harakat qilishi kerak. Agar ongli ravishda tinch, xotirjamlik bilan harakat qilinsa, eson-omon ziyon koʻrmasdan qolishligiga umid ortadi. yerning yoki imoratning tebranayotganligi sezilgan taqdirda darhol jixozlar, ulardan narsalarning qulashi, agʻdarilishi, sinib uchib tushishi mumkinligi va buning natijasida halokat yuz berishini esda tutgan holda, ehtiyotkorlik choralarini koʻrish lozim. Buning uchun stollar tagiga berkinishdan xijolat tortmaslik kerak, bunday qilmaganlar koʻpincha sinib, agʻdarilib tushayotgan buyumlar, ship va devor boʻlaklarini qurboni boʻlishlari mumkin.

Yer qimirlaganda quyidagi amallarni bajarishni tavsiya etamiz:

1. Avvalambor tinch turish kerak, yaʼni boshqa odamlarni tinch holatini buzilishiga sabab boʻlmaslik, yugurib yurmaslik kerak.
2. Bino ichkarisida boʻlgan taqdirda, darhol xavfsiz joyga turib olish kerak. Masalan, stol tagiga kirib olish kerak. Xonaning ichki eshiklari orasiga, ichki burchaklariga turiladi. yer qimirlaganda koʻpincha tashqi devorlar qulashini yoddan chiqarmaslik kerak. Deraza oynalari, isitgichlar va ogʻir buyumlardan nariroqda turgan maʼqul, chunki ular qulashi yoki siljishi mumkin.
3. Tashqariga shoshilib chiqmaslik kerak. Tashqi devorlar boʻylab tushayotgan siniq parcha va boʻlaklar jiddiy xavfga egadir. Zilzila boshlanayotgan vaqtda qayerda turilgan boʻlsa, yer tebranishi tamom boʻlgunga qadar shu yerda turish kerak, tebranish tugagandan keyingina xavfsizroq joyga oʻtish lozim.

4. Elektr quvvati to'xtab qolsa, yong'in chiqqanligi haqidagi signallar eshitilsa, qo'riqlash yoki yong'inni o'chirish signallari ishlab ketsa, ajablanmaslik kerak. Sinayotgan oynalarning jarangi, devorlarning qirsillashini va uchib tushayotgan buyumlarning ovozi eshitishga tayyor bo'lish va qo'rqmaslik kerak.

5. Agar zilzila jarayonida binodan tashqarida bo'lib qolinsa, darhol ko'chani o'rtasiga, maydonlarga, yalangliklarga – imorat va inshootlardan, simyog'och va elektr simlari o'tgan joylardan uzoqroqqa borib turish kerak.

6. Zaruriyat bo'lmasa deraza oynalaridan sakramaslik darkor, bino butunlay saqlanib qolgan taqdirda ham jaroxatlanish mumkin.

7. Agar harakatdagi avtomobilda bo'linsa, uni baland imoratlar va ko'priklardan nariroqda to'xtatib, silkinish tamom bo'lgunga qadar ulardan chiqmasdan o'tirib turish kerak.

8. Yer silkinishlari qaytariladi, bunga hayron bo'lmaslik kerak. Birinchi larzadan keyin, odatda, tinish bo'ladi, keyin tezliklar qaytariladi. Bu hodisa bir zilzilaning o'zida har xil to'lqinlar tarqalishiga bog'liq. Bundan tashqari, aftershok xodisasi sodir bo'lishi mumkin, ya'ni asosiy larzadan keyin, yangi tepki-aftershok bo'ladi. Aftershoklar asosiylaridan bir necha minut, soat, hattoki bir necha kunlardan keyin sodir bo'lishi mumkin. Aftershoklar asosiy zarbadan kuchsizlangan imorat va inshootlarga shikast keltiradi. Ayrim vaqtlarda aftershoklar asosiy larzadan kuchliroq bo'lgan vaqtlari ham bo'lgan.

Yer tebranishi tugagandan keyin ko'p vayronalar va jaf ko'rganlarni ko'rish mumkin. Shu vaqt odam o'zini qo'lga olishi va tinchlikni saqlagan holda, darhol zarar ko'rganlarga va shikastlanganlarga yordam berishni boshlab yuborish muhimdir. Keyingi asosiy vazifalardan biri paydo bo'lgan yong'inlarni o'chirishdir. Shundan keyingina ko'rilgan zararni baholashga va tiklash ishlariga kirishiladi.

Buning uchun:

1. Tinchlikni saqlagan holda diqqat bilan atrof-muhit kuzatiladi va o'rganiladi.

2. Jarohatlanganlarga yordam berish kerak, ularga birinchi tibbiy yordam - tanalari sovib qolmasligi uchun ustilariga odevallar yopib qo'yiladi (sovuq paytlarda), kerak bo'lgan joylarga tibbiyot xodimlarini chaqirish lozim.

3. Yong'in manbalarini topish va iloji boricha ularni o'chirishga harakat qilish kerak.

4. Agar zarur bo'lmasa, o'zboshimchalik bilan vayronalarni ko'zdan kechirish uchun ularni ichiga kirmaslik kerak.

5. Toki kanalizasiyaga shikast etkazilmaganiga ishonch xosil qilmaguncha xojatxonaga kirmaslik kerak.

6. Shikast yetgan imoratlar yonidan o'tilayotganda nihoyatda ehtiyot bo'lish kerak, chunki bo'shashgan imoratlar to'satdan qulashi mumkin, yana gaz yo'llarini buzilishi, elektr simlarining uzilishi va oynalarning sinish xavfi bo'ladi.

7. Diqqat bilan radiodan zilzila to'g'risida xabarlarini eshitib borish kerak.

8. Militsiya, xarbiylarga, o't o'chiruvchilarga tibbiyot tez yordam hodimlariga, qutqarish va tiklash bilan shug'ullanayotgan boshqa kishilarga ko'maklashish kerak.

Obektda yong'in havfsizligi masalalari.

Yong'in xalq xo'jaligiga moddiy zarar keltiradi. Bir necha minut yoki soat ichida juda katta miqdordagi xalq boyliklari yonib, kulga aylanadi. Yong'in vaqtida ajralib chiqadigan tutun, karbonat ангидрид va boshqa zararli hid hamda gazlar atmosferaga ko'tarilib, xavoning tarkibini buzadi. Bundan tashqari, kishilarning jarohatlanishiga, hatto o'limiga sabab bo'ladi.

Hozirgi paytda respublikamiz binolarda yong'in havfini kamaytirish borasida bir qator ishlar amalga oshirilgan. Xususan, yong'in chiqish xavfi kamaytirilgan va butunlay xavfsiz ishlaydigan elektr uskunalari ishlatilmoqda. O't o'chirishning mexanizatsiyalashgan va avtomatlashgan tizimlari tobora kengroq qo'llanilmoqda.

Yong'inni kelib chiqishiga quyidagilar sabab bo'lishi mumkin:

a) isitish pechlarini qurish yoki ishlatish qoidalarining buzilishi;

b) olovni extiyotsizlik bilan ishlatish;

c) yashin yoki statik elektr razryadlar, mashinalar va ishlab-chiqarish jixozlarining nosozligi hamda ularni ishlatish qoidalariga rioya qilmaslik (ichki yonuv dvigatellaridan chiqadigan uchqunlar, elektr qurilmalaridagi qisqa tutashuvlar yoki ularning yerga ulanib qolishi, elektr simlarida zo'riqishning yo'l qo'yilmaydigan darajada ortib isitishi, kontaktlari yomon bo'lgan joylarning qizib ketishi va ulardan uchqun chiqishi, bug' qozonlarining portlashi);

d) qishloq xo'jaligi mahsulotlarining yoki yonilg'ini saqlash qoidalariga rioya qilmaslik natijasida o'z-o'zidan yonib ketishi sabab bo'ladi.

Yonish - yonuvchi moddaning xavo kislorodi yoki boshqa oksidlovchi modda bilan oksidlanishining tez kechadigan kimyoviy reaksiyasi bo'lib, bunda yorug'lik va issiqlik ajraladi.

Yong'indan xabar bergichlar yong'inga qarshi kurashishda eng muhim vositachi hisoblanadi. Xabar bergich tizimi quyidagi talablarni bajarishi kerak: mahalliy yong'in muxofazasiga tez va uzluksiz xabar berish, elektr yong'indan xabar bergich qo'llanilganda elektr zanjirida uzilish ro'y berganda qabul apparatiga avtomatik tarzda xabar berish va boshqalar. Xabar berishni eng ishonchli turi elektr tarmog'i (tizimli) hisoblanadi. elektr yong'indan xabar bergichlar tizimi yong'inni aniqlash va uning joyini xabar berish uchun belgilanadi.

Obektimizda yong'in xavfsizligi bo'yicha mas'ul tayinlangan. U shu binoning yong'in xavfsizligini ta'minlash uchun mas'ul hisoblanadi. Binoda "yong'inga qarshi qalqon" va o't o'chirgichlar ko'zga ko'rinadigan joyga joylashtirilgan, shu bilan birgalikda yong'in xavfsizligiga doir targ'ibot va tashviqot materiallari joylarga o'rnatilib qo'yilgan.

Jaroxatlanganlarga birinchi tibbiy yordam ko'rsatish.

Loyihani kameral sharoitda bajarayotgan vaqtda xonada yong'in chiqib, xodim yong'inda qolishi mumkin. Natijada birinchi darajali kuyish tashxisini olishi mumkin. Birinchi darajali kuyishda terini qizarib shishishi seziladi. Birinchi darajali kuyishda kuygan joylari toza suvda yuviladi, undan keyin spirt, adekolon yoki kaliy permanganatning kuchsiz aralashmasi bilan ho'llanadi. Yordam beruvchi jabrlanganlarning kiyim va oyoq kiyimlarini yechganda, teriga tegib ketmasligi va yara ifloslanmasligiga e'tibor berishi lozim.

Binolarda avariya natijasida yoki biror bir favqulodda vaziyat natijasida odamlarni tok urishi mumkin. Bunday hol shikastlangan kishilar va qutqaruv ishlarini olib borayotgan kishi bilan ham yuz berishi mumkin.

Elektr tokidan shikastlangan kishi organizmida tananing ayrim joylarida umumiy yoki maxalliy o'zgarishlar yuz beradi: teri kuyishi, yumshoq to'qimalarning kuyishi, asab tizimini ishdan chiqishi, nafas olishning to'xtab qolishi va shu kabilar.

Elektr toki urgan kishini zudlik bilan tok ta'siridan qutqariladi. Buning uchun tok manbaadan o'chiriladi yoki shikastlangan kishini tok o'tayotgan simdan ajratib olinadi.

Kuchlanish 1000 V gacha bo'lgan elektr toki ta'siridan qutqarishda quruq taxta, arqon, yog'och kaltak, rezina, diyelektrik qo'lqop yoki tok o'tkazmaydigan boshqa materiallardan foydalanish mumkin.

Agar kuchlanish 1000V dan ortiq bo'lsa, mahsus shtanga va ombirdan foydalanish zarur. Qutqarayotgan kishi ham albatta, diyelektrik qo'lqop va rezina poyafzal kiyib olishi kerak.

Tok ta'siridan qutqarilgan kishi hushida bo'lsa, tekis joyga yotqizilib toza havo bilan ta'minlash kerak. Agar tok urgan kishi behush bo'lsa, zudlik bilan sun'iy nafas oldiriladi va yuragi massaj qilinadi. Sun'iy nafas oldirilayotganda shikastlangan kishini zax yerga, beton polga yotqizib bo'lmaydi. Birinchi yordam ko'rsatayotgan kishi tez va puxta harakat qilishi kerak.

Har bir tashkilotda birinchi tibbiy yordam ko'rsatish uchun dari-dormonlar to'plami bo'lishi kerak, bularga: ichimlik soda -200 g, validol-30 tabletka, borat kislota - 60 g, lekoplastir – (1x15sm) - 5 dona, vazelin - 50 g, rezin arqon 1 dona, shaxsiy paket - 10 dona, bint – 10 dona, novshadil spirti – 20 g, paxta – 100 g, shinalar – komplekt, yod eritmasi va boshqalar kiradi.

3-BOB.

**“Navro‘z” massivida mavjud
avtomobil yo‘llarining davlat
kadastrini yuritish**

3-BOB. “Navro‘z” massivida mavjud avtomobil yo‘llarining davlat kadastrini yuritish tartibi


3.1 “Navro‘z” massivida geodezik-topografik dala qidiruv ishlari

Temir yo‘llarini, avtomobil yo‘llarini, kanal, tunnel, elektr tarmoqlarini va suv o‘tkazish quvurlarini loyihalashda texnik nivelirlash bajariladi.

Joyda trassani tanlash va mahkamlash.

Chiziqli inshootlarining loyiha o‘qini karta yoki planda loyihalash trassalash deyiladi. Dala ishlaridan oldin trassa loyihasi kartaga tushiriladi. Undan keyin rekognossirovka va joyda trassaning yo‘nalishi tanlanadi.

Butun trassa boshlanishidan oxirigacha 100 m bo‘laklarga bo‘lib chiqiladi. Har bir bo‘lakning oxiriga qoziqning boshi 1-2 sm qoldirib qoqiladi. Bu nuqtalar **piketlar** deyiladi. qoziqning yoniga qorovul qoziq qoqib piket nomeri yozib quyiladi. Trassaning boshlanishi O nomerli piketdan boshlanadi.



1-rasm. Yo‘lni texnik nivelirlash profili.

Shunday qilib piketning har bir nomeri trassa boshidan shu piketgacha piket nomerini 100 m ekanligi ko‘rsatadi. Joyning egri qismida piketlar orasiga oraliq nuqtalar belgilanib qoziq qoqiladi va orqangi piketdan necha metr ekanligi yozib qo‘yiladi masalan, nuqtada PK9+45 deb yozib qo‘yilgan bo‘lsa, u nuqta 9 va 10 piket orasida joylashgan bo‘lib 9 piketdan 45 m masofada ekanligini bildiradi.

Piketajlarni rejalash va trassani planga olish bilan birga qattiq muqovali daftarga piketaj daftarchasi olib boriladi. Piketaj daftariga joyni planga olish natijasi, trassani kesib o‘tuvchi yo‘l, daryo va boshqa konturlar tushiriladi. Trassaning qayrilish burchagi, burchak uchi strelka bilan ko‘rsatiladi.

Nivelirlash jarayoni. Nivelirlash trassani davlat balandlik to'ri reperli yoki markasiga bog'lashdan boshlanadi ishonchli tekshirishini amalga oshirish uchun trassaning oxirgi nuqtasini birorta tayanch nuqtaga bog'lash kerak. Trassani faqat bitta tomonini bog'lash imkoniyati bo'lsa nivelirlash ishlari to'g'ri va teskari yo'nalishda bajarilishi kerak.

Joyda inshoot trassani nivelirlash jarayonini batafsil ko'rib o'tamiz. **Nivelirlash jurnalini ishlab chiqish**

Trassani nivelirlash jurnalida bekatdagi nuqtalar nisbiy balandligi reykalardan olingan sanoqlar orqali quyidagi formula bo'yicha hisoblab chiqiladi:

$$h = a - b$$


bu yerda: a – orqadagi reykadani olingan sanoq;

b – oldingi reykadani olingan sanoq;

h qiymatini birinchi va ikkinchi o'lchashlarda reykalardan olingan sanoqlar bo'yicha quyidagicha hisoblaymiz:

$$h_1 = 1238 - 1809 = -571;$$

$$h_2 = 1371 - 1940 = -569.$$



2-rasm. Nivelirlash jarayoni.

Hisoblangan nisbiy balandliklar jurnalni **6 – ustuniga** tegishli ishorasi bilan yoziladi.

Bekatda nisbiy balandlik qiymatlari o'zaro teng yoki farqi **4 mm** dan oshmasa o'rtacha qiymat hisoblanadi va u jurnalni **7-ustuniga** yoziladi.

$$\text{Misol: } h_{o'r} = \frac{-571 + (-569)}{2} = -570$$

Shu tarzda keyingi bekatlarda nisbiy balandliklar va ularni o'rtacha qiymati topiladi.

Jurnalda betma-bet tekshiruv bajariladi, buning uchun jurnalni betida quyidagilar hisoblanadi: orqadagi reykadani va oldingi reykadani olingan sanoqlar yig'indisi

Σa va Σb ;

hisoblangan nisbiy balandliklar va o'rtacha nisbiy balandliklar matematik yig'indisi h_h va $h_{o'r}$.

Jurnalning har bir betida quyidagi tenglik bajarilishi kerak

$$\frac{\Sigma a - \Sigma b}{2} = \frac{\Sigma h_x}{2} = \Sigma h_{yp}.$$

$$\text{Misol: } \frac{22610 - 30355}{2} = -\frac{7745}{2} = -3872.5 \text{ mm}$$

Topilgan qiymatlar jurnalning tegishli ustunlari oxirida yoziladi. Trassa bo'yicha nivelirlash xatosi fh_{xato} quyidagi formula bo'yicha hisoblanadi

$$fh_{xato} = \Sigma h_{o'r} - \Sigma h_n,$$

bu yerda: $\Sigma h_{o'r}$ – nisbiy balandliklar amaliy yig'indisi;

Σh_n – nisbiy balandliklar nazariy yig'indisi.

Ko'rilayotgan jurnalda:

$$\Sigma h_{o'r} = -3872.5 \text{ mm}$$

Nisbiy balandliklar nazariy yig'indisi

$$\Sigma h_n = N_{ren2} - N_{ren1}$$

formulasi bilan hisoblanadi.

Bu formulada N_{ren1} – birinchi reper balandligi,

N_{ren2} – ikkinchi reper balandligi.

Shunda $\Sigma h_n = N_{ren1} - N_{ren2} = 75,618 - 79,512 = -3.854 \text{ m} = -3854 \text{ mm}$,

$$fh_{xato} = \Sigma h_{o'r} - \Sigma h_n = -3872.5 - (-3854) = -18.5 \text{ mm}$$

Nivelirlashni chekli xatosi quyidagicha hisoblanadi

$$fh_{чекли} = \pm 30 \sqrt{L, \text{ мм.}}$$

L- trassa uzunligi, kilometr hisobida.

Hisoblash natijalari jurnalni oxirgi beti quyi qismida keltiriladi.

$$\text{Bizda } fh_{чекли} = \pm 30 \sqrt{0.5} = 21 \text{ мм.}$$

Agar $fh_{xato} \leq fh_{чекли}$ chekli sharti bajarilsa, fh_{xato} qiymati (misolda $fh_{xato} = -18.5 \text{ mm}$) teskari ishora bilan nisbiy balandliklar qiymati ustida yaxlit millimetrdan bo'lib yoziladi, **2-jadval 7-ustunga** qaralsin. Nisbiy balandlik tuzatma ishorasiga qarab tuzatilib **8-ustunga** yoziladi.

Boshlang'ich reper balandligi va tuzatilgan nisbiy balandliklardan foydalanib bog'lovchi (piket) nuqtalar balandligi quyidagicha topiladi

$$N_{p+1} = N_p + h_t$$

H_p – orqadagi nuqtani (pikatni) balandligi;

h_t – tuzatilgan nisbiy balandlik.

Jurnalda: $N_{p+1} = N_p + h_t = 79,512 + (-0,570) = 78,942 \text{ m}$,

$$N_{p+1} = 78,942 + (-2.038) = 76,904 \text{ m} \text{ va hokazo}$$

Topilgan balandliklar jurnalni **10-ustunga** tegishli nuqtalar qatoriga yoziladi. Hisoblashlarni tekshiruv bo'lib oxirgi reper balandligini kelib chiqishi asos bo'ladi.

Oraliq (plyusli) nuqtalari olingan bekatlarda asbob gorizonti topiladi

$$Ag = N_{orq} + a \text{ yoki } Ag = N_{old} + v,$$

N_{orq} N_{old} – bekatda orqadagi va oldingi nuqtalar (piketlar) balandligi;

a, b - shu nuqtalardagi reykalardan olingan ikkinchi sanoqlar.

Jurnalda, 2 – bekatda: $Ag=78,942+0.712 = 79,654m$.

Topilgan qiymat jurnalni 9-ustuniga tegishli bekat qatoriga yoziladi.

Oraliq (plyusli) nuqtalarining balandligi quyidagicha topiladi:

$$N_{or}=Ag- s,$$

bu yerda: s – oraliq nuqtadagi reykadan olingan sanoq

Jurnalda: $N_{or}=79,654 -0,338=79,316 m$.

Topilgan qiymat jurnalni **10-ustunida** tegishli oraliq nuqtasi qatoriga yoziladi. Shu tarzda ko'ndalang nuqtalari balandligi ham topiladi.

5-jadval

Trassani texnik nivelirlash qaydnomasi

Bekatlarni №	Piketlar №	Reykadan sanoqlar			Nisbiy balandliklar h, mm			Asbobgori zonti Ag,m	Balandligi H, m
		orqadagi a	oldindagi, b	oraliqdagi, s	Hisoblangan, h _h	O'rtacha h _{o'}	Tuzatilgan, h _t		
1	2	3	4	5	6	7	8	9	10
1	Rp11	1238							79,512
		1371			-0571	-0570	-0570		
	PK 0		1809		-0569				78,942
			1940						
2	PK 0	0534				+5			78,942
		0712			-2041	-2043	-2038	79,654	
	+60			0338	-2045				79,316
	PK 1		2575						76,904
			2757						
3	PK 1	2642				+3,5			76,904
		2516			+1174	+1174,5	+1178	79,420	
	+49,5			3157	+1175				76,263
	PK 2		1468						78,082
4			1341						
	PK 2	0668				+6			78,082
		0492			-2424	-2422	-2416		
					-2420				
	PK 3		3092						75,666
5			2912						
	PK 3	1034							75,666
		1157						76,823	
	+16			0904		+1			75,919
	+40			2242	-0657	-0657	-0656		74,581
	S.S (5.05.2006 y)			2680	-0657				74,143
	+47			3705					75,118
	+55			3568					73,255
	+60			2236					74,587
6	X		1691						75,010
			1814						
	X	2204				+0,5			75,010
		2100			+0537	+0538,5	+0539		
					+0540				
7	PK 4		1667						75,549
			1560						
	PK 4	1671							75,549
		1792						77,341	
	O'+3			3077					74,264
	O'+8			1726		+1,5			75,615
	O'+10			2172	+0988	+0987,5	+0989		75,169
	CH+4			1371	+0987				75,970
	CH+7			2155					75,186
	CH+10			2231					75,110
	+55			0517					76,824
	PK 5		0683						76,538
			0805						

8	PK 5	1311				+1			76,538
		1168			-0880	-0881	-0880		
					-0882				
	Rp17		2191						75,658
			2050						
	$\sum a$	$\sum a=$ 22610	$\sum v=$ 30355		$\sum h_h = -$ 7745	$\sum h_{o,r} =$ -3872,5			

$$\sum a=22610 \quad \sum b=30355 \quad \sum h_h=-7745 \quad \sum h_{o,r}=-3872,5$$

$$\frac{\sum a - \sum b}{2} = \frac{-7745}{2} = -3872,5 \quad fh_{xam} = \sum h_{yp} - (H_{Rp17} - H_{Rp11}) = -3872,5_{MM} - (75,658 - 79,512_M) = -18,5_{MM}$$

$$fh_{cheklan} = 30_{MM} \sqrt{0,5} = \pm 21$$

Ish har bir kuzatish joyida nisbiy balandliklarni hisoblash va uni 7 ustunga yozish bilan tugatiladi. Sanoqlar va hisoblashlar to'g'riligiga ishonch hosil qilingandan keyingina kuzatuvchi keyingi kuzatish joyiga o'tadi.

Dala o'lchash natijalarini hisoblash.

Nivelirlash ishlari natijalarini hisoblash dala jo'rnalidagi hamma yozuvlarni va betma-bet tekshirishlarni diqqat bilan qarab chiqishdan boshlanadi. Bu ikki qo'lda, ya'ni ikki kishi ko'rib chiqadi.

Betma-bet tekshirishi quyidagi ishlarni o'z ichiga oladi: har bir betda 3, 4 ustun sanoqlarining yig'indisi va 6, 7 ustunning algebraik yig'indisi hisoblanadi. Chunki $\Sigma_3 - \Sigma_4$ yarim farqining yig'indisi Σ_6 ning yarim yig'indisiga va bir vaqtda Σ_7 algebraik yig'indisiga teng bo'lishi kerak:

$$(\Sigma_3 - \Sigma_4) / 2 \text{ q } \Sigma_6 / 2 \text{ q } \Sigma_7$$

Betma-bet tekshirishini bajargandan keyin yo'lning bog'lanmaslik xatosini topishga kirishiladi. Agar nivelir yo'li absolyut otmetkasi ma'lum bo'lgan ikkita reper orasida o'tkazilgan bo'lsa, nivelirlash natijasida olingan nisbiy balandliklar yig'indisi Σh oxirgi R_{oxir} va boshlang'ich R_{bosh} reperlar absolyut balandliklari farqiga teng bo'lishi kerak.

$$\Sigma h_{naz} = N_{Oxir} - N_{Boshl.}$$

Bunda bog'lanmaslik xatosi:

$$f_h = \Sigma h_{amal} - (N_{Oxir} - N_{Boshl.}) = \Sigma h_{amal} - \Sigma h_{naz}$$

Yopiq nivelir yo'lida nisbiy balandliklar yig'indisi nolga ($\Sigma h = 0$) teng bo'ladi va bog'lanmaslik xatosi:

$$f_h = \Sigma h = 0$$

Dala ishlari tugagandan keyin bog'lanmaslik xatoligi f_n ning chekdan oshgan, oshmaganligini tekshirib ko'riladi. Agar chekdan oshgan bo'lsa ish qaytadan bajariladi.

Texnik nivelirlashda yo'l quyiladigan xatolik quyidagidan oshmasligi kerak:

$$f_h = \pm 50 \sqrt{L} \text{ mm}$$

bu yerda L –yo‘l uzunligi, km da.

Nivelir yo‘lining absolyut balandliklarni hisoblash.

Agar bog‘lanmaslik xatosi yo‘l qo‘yilgan chekdan oshmagan bo‘lsa, uni hamma nisbiy balandliklarga teng qilib teskari ishorada tarqatishadi.

Nisbiy balandliklarga tuzatmalar 1 mm dan kam bo‘lsa, ular keyingi nisbiy balandliklarga 1 mm aniqlikda kiritiladi. Tuzatmalar yig‘indisi bog‘lanmaslik xatoligiga teskari ishora bilan teng bo‘lishi kerak.

Xatoliklar tarqatilib bo‘lingandan keyin piket (oraliq va ko‘ndalang) nuqtalarining absolyut balandliklari quyidagi formula bilan topiladi:

$$N_i = H_{i-1} + h$$

Bu yerda N_i - hisoblanadigan absolyut balandlik;

h - nuqtalar orasidagi tuzatilgan nisbiy balandlik

Absolyut balandliklarni hisoblashning to‘g‘riligini tekshirishi

$$N_{\text{oxir}} - N_{\text{bosh}} = \sum h_{\text{teng}}$$

Hamma nuqtalarining absolyut balandligini topgandan keyin oraliq nuqtalar (plyus) va ko‘ndalang nuqtalarining asbob balandligi (gorizontini) topiladi. Asbob balandligi (gorizonti) quyidagi formula bilan topiladi:

$$AB = N_A + a$$

Bu yerda, a - orqa reykaning qora tomonidan olingan sanoq.

Asbob balandligi aniqlagandan keyin oraliq nuqtalarning absolyut balandligi topiladi:

$$N_{\text{oraliq}} = AB - S$$

3.2 Navro‘z massivi hududidagi 4P58 raqamli mahalliy yo‘lining mintaqaviy chizig‘ida joylashgan yerdan foydalanuvchilarning yo‘qlamadan o‘tkazish ishlari

Har bir amalga oshiriladigan avtomobil yo‘llari yo‘qlama ishlari O‘zbekiston Respublikasining “Yer kadastr to‘g‘risida”gi, “Davlat kadastrlari to‘g‘risida”gi qonunlar, Vazirlar Mahkamasining 2005 yil 16 fevraldagi “Davlat kadastrlari yagona tizimini yaratish va yuritish tartibi to‘g‘risida”gi 66-sonli, 2005 yil 30 iyundagi 152-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Avtomobil yo‘llari davlat kadastrini yuritish tartibi to‘g‘risida”gi Nizom va 2011 yil 26 dekabrda “O‘zbekiston Respublikasi hududidagi avtomobil yo‘llarida xavfsizlikni ta‘minlash va tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori ijrosini ta‘minlash maqsadida 4P58 raqamli mahalliy avtomobil yo‘lining mintaqasidagi yer uchastkalarini yo‘qlamadan o‘tkazish ishlari amalga oshirish maqsadida bir qator dala qidiruv ishlari amalga oshirildi.

Jumladan: avtomobil yo‘lining mintaqaviy chizig‘ida joylashgan barcha yerlan foydalanuvchilarning hozirgi holati bo‘yicha yer maydonlarining hisobi, nomi va yer turlari bo‘yicha

taqsimoti kabi dala qidiruv ishlari natijasiga ko'ra aniqlanib mazkur tuman hokimining qaroriga asosan yo'qlama ishlari tasdiqlanadi. 4R58 avtomobil yo'lining yuqorida aytib o'tilgan oraliq qismini mintaqa kengligi yo'ning chekka qismidan 25 metrdan olindi. Tarmoq uzunligi jami o'ng tomon bo'yicha 3,950 metr va chap tomoni bo'yicha 3,950 metrni ikki tomoni qo'shilganda jami 7,900 metrni tashkil etdi.

6-jadval

Avtomobil yo'llari kadastr ma'lumotlarining ruyxati

№	Kursatkichlar nomi	Kursatkichlar
1.	Inshoot nomi	Navro'z avtoyo'li
2.	Idoraga karashligiligi	Karshi avtoyo'l ta'mir
3.	To'lik nomlanishi	Navro'z avtoyo'li
4.	Tashkil etilgan vaqti	1972 yil 14 mart
5.	Asosiy hujjat, nimaga asoslanib inshoot tashkil etilgan	Yer ajratish hujjati (Davlat dalolatnomasi)
6.	Davlat korxonasining nomi	Karshi avtoyo'l ta'mir
7.	Yer uchastkasini ruyxatga xisobga olingan vaqti	1972 yil
8.	Kim tomonidan yer uchastkasi foydalanishga berilgan vaqti va davlat akt nomeri	Kashkadaryo viloyati Yerdan foydalanish boshkarmasi 1972 yil 15 fevral №21
9.	Yer uchastkasini umumiy maydoni	16.2
10.	Yer uchastkalarini soni	1
11.	Obektlarning yer uchastkasi plani	Mavjud
12.	Tuman yer uchastkasini sxemasi	Mavjud
13.	Yer uchastkasini yaroksizligi, kim tomonidan tasdiklangan, kachon va akt nomeri	2009 yil 16 fevral Karshi avtoyo'l ta'mir
14.	Yer uchastkasini chegarasi kachon va kim tomonidan kayd etilgan	«O'zdavero'yxa», 1972
15.	Yer uchastkasidagi yer turlari strukturasi	Yo'l uchun ajratilgan yer
16.	Yer uchastkasining egasi va foydalanuvchi subektini tiklash	Karshi avtoyo'l ta'mir tashkiloti
17.	Yer uchastkasini doimo yerdan foydalanuvchi bilan urtasidagi shartnomasi, ikkinchi vaktga foydalanish maydoni, uni tugri yunaltirish	Mavjud

Davlat avtomobil yo'llari kadastr ruyxatidan utkazish uchun zarur bulgan ma'lumotlar kuyidagi jadvalda beriladi

Davlat avtomobil yo'llarini kadastr ro'yxatidan o'tkazish ma'lumotlari

№	Ko'rsatkichlar nomi	Ko'rsatkichlar
1.	Obekt turi, uning nomi	Avtomobil yo'li
2.	Obektni kadastr kodi	18:12:01:02:003
3.	Avtomobil yo'llari obektini umumiy nomi va obektni nomeri	Navro'z 4P58
4.	Obektni joylashgan joyi	Savbog' MFY
5.	Obektni toifasi	IV toifa
6.	Obektni foydalanishga topshirilgan vaqti	1972yil
7.	Xizmat kilish zonasi	Savbog' MFY
8.	Yer uchastkasini maydoni	16,2

Kadastr ro'yxati, kadastr ma'lumoti davlat avtoyo'llar kadastri

korxona kitobiga kiritiladi. Davlat avtomobil yo'llari kadastriga qarashli avtomobil yo'llariga asosiy texnik tavsifi quyidagi jadvalda beriladi. Avtomobil yo'llari kadastriga umumiy foydalanuvchi yo'llar va asosiy obektlar shularga:

- ko'priklar;
- tonnellar;
- ko'chishga qarshi inoshatlar;
- asfalt beton zavodi;
- karerlar;
- maydalovchi sexlar;
- temir beton konstruksiya ishlab chiqaruvchi zavod;
- ta'mirlash zavodi;
- trest va qurilish boshkarmasi;

Massivdagi 4R58 avtomobil yo'liga texnik tavsif beradigan bo'lsak bu quyidag jadvalda o'z aksini topgan.

Davlat avtomobil yo'llari kadastriga qarashli avtomobil yo'llarga asosiy texnik tavsifi

№	Ko'rsatkichlarnomi	Ko'rsatkichlar
1.	Yo'lning nomi va raqami	Navro'z 4P58
2.	Obektni ahamiyati xalqaro, respublika, viloyat, tuman	Tumanmiqyosida
3.	Yo'lning kategoriyasi	IV toifa
4.	Tumandagi ahamiyati	Tuman markazi bilan bog'lovchi
5.	Yo'lning mustahkamligi va qalinligi, sm.	10 sm
6.	Yo'lning necha qator yo'nalishi	2 qator
7.	Yo'ldagi belgilar soni, dona	17 ta
8.	Yo'ldagi trotuarning uzunligi, km	3,2 km
9.	Yo'ldagi oshxonalar soni, dona	2 ta
10.	Yo'ldagi avtomobil to'xtash joyini soni, dona	6 ta
11.	Yo'lning temir yo'l bilan kesishish soni, dona	1 ta
12.	Yo'loxirgi martata mirlangan vaqti	2008 yil
13.	Qurilish uchun ketadigan kapital mablag'	1 mlrd 320 mln so'm
14.	Obektni qayta ta'mirlash uchun ketadigan mablag'	195 mln.so'm
15.	Obektni balans qiymati	1 mlrd 515 mln so'm
16.	Yer uchastkasini qiymati	36 mln.so'm
17.	Obektning to'la qiymati	1 mlrd 551 mln so'm

Yuqoridagi jadvaldan ko'rinadiki massivdagi IV toifali 4R58 raqamli avtomobil yo'lining balans qiymati qiymati 1 mlrd 515 mln so'mni, yer uchastkasining qiymati 36 mln so'mni tashkil etgani holda, obektning umumiy qiymati 1 mlrd 551 mln so'mni tashkil etdi.

3.3 Avtomobil yo'llari davlat kadastri obektlarini Navro'z massivi misolida geografik axborot ma'lumotlar bazasini yaratish va yuritish.

GAT bu avvalombor sayyoramizda sodir bo'layotgan voqea va xodisalarni, fazoviy ma'lumotlarni tahlil qilish hamda deyarli har kanday sohada qaror qabul qilish jarayonini tezlashtirish uchun yordam beradigan xaritalar yaratish uchun xizmat qiladigan zamonaviy kompyuter texnologiyasidir. GATni hozirgi kunda zamonaviy kompyuter texnologiyalarisiz tasavvur qilish mumkin emas, qanchalik tez kompyuter dasturlari rivojlanar ekan shunchalik tezlik bilan GAT ham rivojlanib boradi. GAT amalga oshiriladigan har kanday amaliy tahlillarni barchasi kompyuter dasturlari orqali amalga oshiriladi. GAT orqali biz ma'lumotlarni so'rash, fazoviy ma'lumotlarni tahlil qilish, ularni birlashtirish, ularni vizualizatsiya qilish, mavjud ma'lumotlardan yangi ma'lumot yaratish va boshqa turli tuman muammolarni hal qilish mumkin.

GAT quyidagi 5 ta vazifani bajaradi.


1. **Ma'lumotlar kiritish** – Ma'lumotlarni GATda ishlatish uchun bu fazoviy ma'lumotlar raqamli shaklga zga bo'lgan formatga keltirish kerak bo'ladi. Masalan, qog'ozda chizilgan xaritalarni kompyuterga kiritish *“xaritani rakamlashtirish deb ataladi”*. Bu jarayonni yanada tezlashtirish uchun biz GATda skanerlardan foydalanish imkoniyatiga egamiz. Skanerdan boshqa bir vosita bu digitayzer deb nomlanadi.

2. **Manipulyatsiya** – Ma'lum bir loyxani amalga oshirish uchun mavjud fazoviy ma'lumotlarni ko'shimcha ravishda shaklini o'zgartirish zarur. Masalan fazoviy ma'lumotlarni masshtabi turli xil bo'lishi mumkin. Ana shu ma'lumotlar tahlil qilinishi uchun ular bir xil masshtabga keltirilishi zarur. Xususan bu ma'lumotlar birlashtiriladigan ham bo'lsa barcha ma'lumotlarni masshtabi bir xil bo'lishi zarur.

3. **Boshqarish** – Ish jarayonida fazoviy ma'lumotlardan foydalanuvchilar sonini, fazoviy ma'lumotlar turlari va miqdorini ko'payishi ma'lumotlarni samarali boshqarishga ta'sir etadi. Bunday hollarda GATda barcha fazoviy ma'lumotlar relyatsion shakldagi jadvallar ko'rinishida bo'ladi va barcha jadval ko'rinishidagi fazoviy ma'lumotlar bir biriga chambar chas bog'lik bo'ladi va bu GATda Ma'lumotlar Bazasi Tizimi deb ataladi.

4. **Ma'lumot so'rash va tahlil qilish** – GATda bizlar mavjud fazoviy ma'lumotlar bazasidan bizga kerakli bo'lgan ma'lumotni so'rab topishimiz mumkin. Savollar oddiydan tortib to kompleks savollarga borib taqaladi. Masalan *u yoki bu yerni egasi kim*, ikkita obekt orasidagi masofa qanchani tashkil etadi, ma'lum bir tahlilni talab qiladigan murakkab so'rashlarga esa, yangi *uy qurish uchun qayerda bo'sh yer mavjud*.

5. **Vizualizasiya** – Ko'pchilik fazoviy ma'lumotlar operatsiyalarining aniq natijasi ma'lumotlarni xarita yoki grafika




3-rasm. Vizualizasiya

ko‘rinishida vizualizasiya qilishdan iborat. Xarita bu fazoviy ma’lumotlarni qisqa lekin boy, tushunarli ko‘rinishda qaror qabul qiluvchiga yetkazishdir va bu fazoviy ma’lumotlarni samarali saqlash yo‘llaridan biri hisoblanadi. GATda ana shu vizualizasiyani yanada tushunarliroq ko‘rinishda qaror qabul qiluvchiga yetkazish uchun turli tuman dasturlar mavjud. Masalan, ikki o‘lchamli ma’lumotlarni uch o‘lchamli ko‘rinishda, yoki grafiklar animasiyalar orqali tasvirlash mumkin.

GAT ni hozirgi kun amaliyotidagi ahamiyati va zaruriyati.

Geografik informasion tizimlar fani kompyuter texnologiyari, dasturlarni rivojlanishi bilan keskin bog‘liq. Shuningdek matematika, fizika, biologiya va ximiya fanlari bilan ham bog‘liq. Masalan, masofadan ma’lumot yig‘ishni (Remote Sensing) rivojlanishi kosmonavtikani rivojlanishiga bog‘liq.


ESRI kompaniyasiga tegishli bo‘lgan ArcGis dasturida geografik ma’lumotlar bazasini yaratish uchun mazkur dasturning Arc Catalog ta’minotidan foydalaniladi. Arc Catalog ta’minotining ishchi oynasi ochilgach Catalog daraxti yordamida kerakli bo‘lgan xotira diski tanlanib olinadi.



4-rasm. Personal Geodatabase (shaxsiy ma’lumotlar bazasi) oynasi.


1-Bosqich. Kuzatuv oynasi ustiga sichqonchaning o‘ng tugmasi bosiladi va natijada kuzatuv oynasining yordamchi bandlari hosil bo‘ladi. Hosil bo‘lgan yordamchi banddan yangi qatoridagi Personal Geodatabase (shaxsiy ma’lumotlar bazasi) tanlanadi va unga nom kiritiladi.

2-Bosqich. Yaratilgan shaxsiy ma’lumotlar bazasi ichiga kiriladi va sichqonchaning o‘ng tugmasi orqali Feature Dataset qatori tanlanadi.




5-rasm. Feature Dataset oynasi.

Natijada xosil bo'lgan New Feature Dataset darchasiga nom kiritiladi va dale tugmasi orqali navbatdagi koordinatalar tizimi kiritiladi.



6-rasm. New Feature Dataset darchasi.


Koordinatalar tizimi ketma ketligi quyidagi tartibda amalga oshiriladi.



7-rasm. Koordinatalar tizimi oynasi.

Tanlangan hududga tegishli zona belgilanadi va dale tugmachasi ketma-ket ikki marta bosilgach finish tugmasi orqali Feature Dataset darchasiga yakun yasaladi.


3-Bosqich. Xosil bo'lgan Feature Dataset ichiga kiriladi va yana bir bor sichqonchanning o'ng tugmasi bosilib Feature Class qatori tanlanadi.



8-rasm. Feature Class oynasi.

Xosil bo'lgan New Feature Class darchasidagi Name bo'shlig'iga nomlanadigan obekt nomi kiritilsa Type bandidagi qatorlardan qatlam turiga qarab qatlam xili tanlanadi. Masalan maydonli qatlamga Polygon Features, chiziqli qatlamga Line Features, nuqtali qatlamga Point Features va yozuvli qatlamga Annotation Features qatorlari tanlanadi.

4-Bosqich. Dale tugmachasi bosilgach yaratilmoqchi bo'lgan qatlam haqida ma'lumot beruvchi ma'lumotlar jadvali ochiladi. Field Name ustuniga qatlam haqida ma'lumot beruvchi so'zlar kiritilsa, Data Type ustuniga so'zlarning qay turda ekanligi ko'rsatiladi.



9-rasm. Polygon Features, Line Features, Point Features, Annotation Features oynasi.

. Masalan: agar kiritilgan savol shaklidagi soʻzlar javobi soʻz shaklida boʻlsa Data Type ustunidagi tur **Text**, sanaga oid savol boʻlsa **Date**, raqamlarga oid savol boʻlsa **Double**, surʼat haqida soʻralgan boʻlsa **Raster** bandlari tanlanadi.

Darchaning pastki qismida joylashgan Field Properties boʻyruqidagi Length qatorida koʻrsatilgan (50) raqam(i) Field Name ustunida keltirilgan

Field Name	Data Type
OBJECTID	Object ID
SHAPE	Geometry
Номи	Text
	Short Integer
	Long Integer
	Float
	Double
	Text
	Date
	Blob
	Guid
	Geometry
	Raster

10-rasm. Oxirgi natijani olish oynasi

XULOSA

XULOSA

Respublikamiz rivojlangan davlatlar qatoriga qo‘shilishi ko‘p jihatdan qishloq xo‘jaligida asosiy ishlab chiqarish vositasi bo‘lgan yer resurslaridan jumladan sug‘oriladigan yer maydonlaridan foydalanish samaradorligini oshirishdan iborat. Bitiruv malakaviy ishining mavzusi «O‘zbekiston Respublikasi Qashqadaryo viloyati G‘uzor tumani Navro‘z massivida avtomobil yo‘llar davlat kadastrini yuritish» ishlarini bajarishga bag‘ishlangan. Bugunga kelib yerlarni sifatini iqtisodiy baholashlar ayrim sohalarda zarur barcha malumotlarni olish uchun yetarli bo‘lmay qoldi. Bunga respublikamizda bo‘layotgan qishloq xo‘jaligidagi iqtisodiy islohotlar talablaridan kelib chiqib yondashish mumkin.

Avtomobil yo‘llari davlat kadastrini (AYDK) "Davlat kadastrlari to‘g‘risida", "Avtomobil yo‘llari to‘g‘risida"gi O‘zbekiston Respublikasi qonunlariga va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2005 yil 16 fevraldagi 66-son karori bilan tasdiqlangan Davlat kadastrlari yagona tizimi (DKYAT)ni yaratish va yuritish tartibi to‘g‘risidagi nizomga, boshqa normativ-huquqiy hujjatlarga va mazkur Nizomga muvofiq yuritiladi.

AYDK - bu avtomobil yo‘llari obektlari, ularning geografik holati, huquqiy maqomi, miqdor va sifat tavsiflari va iqtisodiy baholash to‘g‘risidagi yangilanib turiladigan ishonchli axborot tizimi.

Avtomobil yo‘llari obektlariga tegishli bo‘lgan yer uchastkalari, binolar va inshootlarga bo‘lgan huquqlarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazish ko‘chmas mulkka bo‘lgan huquqlarni ro‘yxatdan o‘tkazish uchun belgilangan tartibda vakolatli organlar tomonidan amalga oshiriladi. Avtomobil yo‘llari obektlariga tegishli bo‘lgan, davlat yer kadastridan AYDKga berilayotgan yer uchastkalari to‘g‘risidagi yer-kadastr axborotida maqsadli foydalanilishi bo‘yicha yerning tarkibi to‘g‘risidagi, yer uchastkalariga bo‘lgan huquq davlat ro‘yxatidan o‘tkazilganligi, yerning miqdori va sifati to‘g‘risidagi ma’lumotlar bo‘lishi kerak.

Davlat avtomobil yo‘llari kadastrini yuritish uslubining o‘ziga xosligi va olib borish, o‘tkazilishi, hisoblash tartiblari ushbu ishda yoritilgan. Biz bitiruv malakaviy ishi mavzusidan kelib chiqib, asosan avtomobil yo‘llari obektlari ro‘yxati ularning miqdor tavsiflarini aniqladik. Bitiruv malakaviy ishida qo‘llanilgan uslublar va tartib qoidalar boshqa massivlarda ham foydalanish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

- 1.O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi. T.: 1992.
- 2.O'zbekiston Respublikasi «Yer kodeksi» T.: «Adolat» 1998.
- 3.I.A.Karimov «O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida». T.: «O'zbekiston» 1995.
- 4.Karimov I.A. O'zbekiston buyuk kelajak sari. T.: «O'zbekiston» 1998
- 5.«Davlat kadastrlari to'g'risida»gi qonun. T.: «O'zbekiston» 2000.
- 6.O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2005 yil 30 iyundagi 152 sonli qarori.
- 7.C. Avezbayev, S.N.Volkov. Yer tuzishni loyihalash Darslik T.: 2006
- 8.Avtomatizirovannaya sistema vedeniya zemelnogo kadastra.
- 9.Yer kadastr. O.R.Bobojoyov, Q.R.Raxmonov, A.J.G'ofirov. O'rta maxsus, kasb xunar kollejlari uchun o'quv qo'llaima. T.: «Cho'lpon» 2002. 158-bet.
- 10.Qishloq xo'jaligida isloxlarni chuqurlashtirishga doir qonun va meyoriy xujjatlar to'plami. Tom-I. «Shark» nashriyoti matbaa kompaniyasi bosh taxririya. T.: 1998, - 416 bet.
- 11.Sistema zemelno kadastrvoy informatsii. Uchebnoye posobiye. A.S.Chertoviskiy. T.: 1989.
- 12.Tuman (shahar) yer kadastr kitobini yuritish bo'yicha ko'rsatma. RX,-13-020-00. T.: 2000, - 30 bet.
- 13.Ukazaniya po vedeniyu zemelno kadastrvoy knigi predpriyatiya, organizatsii, uchrediY. Moskva Agropromizdat 1986. 56-str.
- 14.«Geodeziya va kartografiya to'g'risida»gi qonun. O'zbekiston Respublikasining yangi qonunlari. 19-jild,T.: «Adolat» 1999.
- 15.«Geodeziya, kartografiya va kadastr» bakalavriatura yunalishi bo'yicha bitiruv malakaviy ishini bajarishga doir metodik ko'rsatma. G'.N.Aliqulov, M.Avloqulov, M.M.bozorov Qar.MII, 2016 yil
- 16.«O'zbekiston Respublikasi hududlarini kadastr bo'yicha bo'lish hamda yer uchastkalari, binolar va inshootlarning kadastr raqamlarini shakllantirish tartibi to'g'risida»gi nizomni tasdiqlash hakida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining № 492-sonli qarori.
- 17.O'zbekiston Respublikasi vazirlar Mahkamasining 1996 yil 17 iyuldagi 255- sonli qarori bo'yicha qabul qilingan «Davlat kadastr yagona tizimi» Nizomi.

Internet saytlari:

1. www.kadastr.uz
2. www.ziyonet.uz
3. www.geodez.ru

ILOVALAR